

**«Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish
yo‘llari» mavzusidagi**

KURS ISHI

Mundarija:

	Kirish	3
I-Bob	Tijorat banklari faoliyati, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati	7
1.1.	Tijorat banklar tushunchasi va faoliyatini tashkil qilish asoslari	7
1.2.	Tijorat banklari faoliyati tamoyillari va funksiyalari	22
II-Bob	O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining zamonaviy holati va uning taxlili	30
2.1.	O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari va uning taxlili	30
2.2.	Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati va uning tahlili	38
III-Bob	Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	43
3.1.	Tijorat banklari resurslarini optimallashtirish yo'llari	43
3.2.	Tijorat banki foydasini oshirish va xarajatlarini kamaytirish yo'llari	54
	Xulosa	65
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	68

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Tijorat banki – bu tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va bank xizmatlarini taqdim etish ya'ni kreditlarni taqdim etish, bank hisob varaqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi tijorat moliya kredit instituti hisoblanadi. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning "lokomotivi" bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan nyaning pul mablag'lari bilan taminlaydi. Boshqacha aytganda, bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i" bilan taminlaydigan omili hisoblanadi. Bunda tijorat banklarining vositachiligi qo'yidagilarda nomayon bo'ladi: pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar.

Tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha yuridik amallar yani ularni tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan. Shu qonunning 2 - bobi "Bank faoliyatiga ruxsat berishga doir eng zarur shartlar" deb nomlanib o'z ichiga 14 ta modda (15-28 moddalar) larni oladi¹.

Kurs ishining maqsadi: Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish va tahlil etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi.

Kurs ishining vazifalari:

Tijorat banklari faoliyati, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatining nazariy asoslari mazmuni, mohiyati, funksiyalari va asosiy hal etishi lozim bo'lgan masalalarni nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqish;

¹ O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son.

- O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining zamonaviy holati va muammolarini tahlil etish va takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni asoslash va boshqalar.

Kurs ishining obyekti: O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari.

Kurs ishining predmeti: O'zbekiston tijorat banklari faoliyati faoliyatining iqtisodiy samaradorligi tahlili maydonga chiqadi.

Kurs ishining nazariy asoslari: Kurs ishining nazariy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, majlislardagi nutqlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, Respublika Markaziy Bankining yuriqnomalari va farmoyishlari xizmat qiladi.

Kurs ishi tarkibining qisqacha tavsifi: kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Kurs ishining kirish qismida bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari muhim ahamiyatga ega ekanligi va dolzarbligi asoslanib berilgan. Kurs ishining obyekti, predmeti va maqsad, vazifalari yozilgan.

Kurs ishining birinchi bobida tijorat banklari faoliyati, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati ya'ni tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari, tamoyillari va funksiyalari yoritilgan.

Kurs ishining ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining zamonaviy holati va uning amaldagi holati tahlil qilingan.

Kurs ishining uchinchi bobida – bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni o'rganish jarayonida nazariy va amaliy izlanishlardan kelib chiqib bildirilgan xulosaviy fikr hamda tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

I-Bob. Tijorat banklari faoliyati, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati

1.1 Tijorat banklar tushunchasi va faoliyatini tashkil qilish asoslari

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisob varaqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi moliya kredit institutidir.

Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning “qon tomir tizimi” bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ya'ni qiyoslab aytganda “qon bilan” taminlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni bir butin mexanizm deb olganimizda, o'ni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan “yoqilg'i” bilan taminlaydigan omilidir. Vositachi sifatida tijorat banklari pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga ya'ni bank marjasiga ega bo'lib, taqdim etadilar.

O'zbekistonda tijorat banki faoliyatini yuritish uchun ya'ni tijarat bankini tashkil qilish uchchun Markaziy bank tomonidan beriladigan bank litsenziyasini olish zarur. Ushbu litsenziya muddatsiz va uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

Tijorat banklari qanday xizmatlar ko'rsatadi degan sovalga quyidagicha jobav bermoqchimiz.

Birinchidan, banklar sizning mablag'ingiz bilan samarali foydalanishni va xavfsizligini taminlagan holda, omonatga ya'ni depozitga pulingizni qabul qilib, foiz to'lash orqali mablag'laringizni ko'paytirib beradi.

Eng muhimi, sizning omonatingiz xavfsizligi «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi» tomonidan uning hajmi va valyutasidan qat'iy nazar to'liq kafolatlanadi.

Ikkinchidan, Sizga mablag' kerak bo'lganda yoki zarur narsalarni sotib olish uchun jamg'armalaringiz etarli bo'lmaganda, tijorat banklari sizga kreditlar taqdim

etishi mumkin ya'ni maqsadingizga erishish uchun vaqtinizni tejamaydi. Misol uchun, uy, texnika, avtomobil, mebel sotib olish, o'qish to'lovlari va boshqalar uchun kreditlar (ipoteka, iste'mol, talim kreditlari) olishingiz mumkin.

Uchinchidan, banklarning kassalari va mobil ilovalari orqali mahsulotlarning xaridi, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, (bank xizmatlari turlicha) jarimalar va boshqalar uchun to'lovlarni amalga oshirish oson.

To'rtinchidan, naqd pulsiz mablag'lar bilan to'lash uchun tijorat banklarida hisob varaqlari ochish mumkin. Bu, onlayn do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun eng qulay to'lov yo'li hisoblanadi. Bank hisob varag'iga mablag'ingizni qo'yib, ularni xavfsizroq saqlaysiz.

1-jadval.

Tijorat banklarining xizmatlar turi²:

Jismoniy shaxslarga	Yuridik shaxslarga
• Pul o'tkazmalari • Omonatlar • Bank kartalari • Kredit mahsulotlari • Konversion amaliyotlari • Mobil banking • Individual seyf va yacheykalar • Hisob-kitob va kassa xizmatlari • To'lovlarni qabul qilish • Kommunal to'lovlarni amalga oshirish • Jamg'arma sertifikatlari • Mol-mulkni ishonchli boshqarish, trast operatsiyalari	• Kredit mahsulotlari, shu jumladan xorijiy valyutada • Lizing • Faktoring • Konversion amaliyotlari • Internet-banking • Individual seyf va yacheykalari • Hisob-kitob va kassa xizmatlari • Xorijiy kredit liniyalari • Loyihalarni moliyalashtirish • Sug'urta tashkilotlar nomidan sug'urta shartnomasini tuzish • Omonat sertifikatlari • Mol-mulkni ishonchli boshqarish, trast operatsiyalari

² <https://finlit.uz/uz/articles/financial-market/commercial-banks/>

Shuningdek, tijorat banklari xorijiy valyutani naqd va naqd pulsiz shakllarda sotib olish va sotish, bank konsalting va informasion xizmatlar, hujjatlarni va boshqa qimmatbaho narsalar va hokazolarni saqlash uchun seyf va yacheykalarni ijaraga berish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadi. Bunday xizmatlar turi yangidan kiritilayotgan innovatsion xizmatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga tijorat banklariga moliyaviy amaliyotlar bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish, savdo, sug‘urta va boshqa faoliyat bilan bevosita shug‘ullanish taqiqlanadi.

Yuqorida takidlanganidek, bozor iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan hoqlogan subekt shekilli tijorat banklarining ham asosiy maqsadi foyda olishdir. Banklar qanday qilib foyda olishini ko‘rib chiqaylik (2-jadval).

2-jadval.

Tijorat banklari daromadlari:³

Foizlar evaziga daromadlar:	Foizsiz daromadlar:
• kreditlar • boshqa tijorat banklariga berilgan qarzar • investitsiyalar • qimmatli qog‘ozlarni qayta sotib olish kelishuvlari • Markaziy bankga quyilgan mablag‘lar • qarz majburiyatlariga investitsiyalar • lizing operatsiyalari va hokazolar	• mijozlar uchun hisob-kitob va kassa xizmatlari • bank kafolatlarini taqdim etish • mijozlarning valyuta shartnomalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish • konversiya amaliyotlari • brokerlik va depozitar xizmatlari • plastik kartalar bilan amaliyotlar • ishonchli boshqarish amaliyotlari • faktoring xizmatlari • depozit saqlash va boshqalar

³ <https://finlit.uz/uz/articles/financial-market/commercial-banks/>

Daromad bilan bir qatorda banklarning etarli xarajatlari mavjud:

- foizlar bo'yicha xarajatlar: talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar hisob varaqlari, muddatli omonatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga to'lovlar, to'lanadigan kreditlar bo'yicha;
- foizsiz xarajatlar: komission xarajatlar va xizmatlar uchun xarajatlar (masalan, bank reklamasi yoki tadbirlarni o'tkazish), xorijiy valyuta kursining salbiy o'zgarishlaridan yo'qotishlar, investitsiyalar va boshqalar;
- operatsion xarajatlar: ish haqi xarajatlari, bank binolarini ijarasi va boshqa xarajatlari, xizmat safarlari, amortizatsiya, sug'urta, soliqlar va boshqalar;
- birlashmalarga azolik badallari uchun to'lovlar va fuqarolar omonatini kafolatlash fondiga mablag'lar to'lovlari.

Yuqorida aytilgan daromad va xarajatlarning o'rtasidagi farqi tijorat banklarining foydasi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, omonatlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari nima uchun farq qilishini ya'ni marjasini tushuntiradi.

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy dahldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu vaqt ichida bo'lg'usi tasischilar o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar, zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar.

Tijorat banklari faoliyati ularni tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan. Shu qonunning 2 - bobi "Bank faoliyatiga ruxsat berishga doir eng zarur shartlar" deb nomlanib o'z ichiga 14 modda (15-28 moddalar) ni oladi⁴.

Banklar respublika hududida o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida",

⁴ O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son.

"Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonunlari, hamda bankka me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Bank tashkil etish jarayoni bir necha bosqichlarga bo'linishi mumkin.

1. Tayyorgarlik bosqichi.

Bu davrda bank muassislari o'rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo'shilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning tasis hujjatlari majmui tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi, tasischilar o'rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uning asosida tasis shartnomasi tuziladi (FKning 43 - moddasi, o'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida"gi qonunning 3 - moddasi) Aksiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro'yxatiga olinguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo'ladilar.

Yuridik va jismoniy shaxs bo'lgan rezidentlar, shuningdek norezidentlar bank muassislari bo'lishi mumkin.

Davlat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida boshqa davlat tashkilotlari nomidan bank muassisi va aksiyadori bo'lishi mumkin. Ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas.

Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

2023 yil 1 sentyabrga qadar yuz milliard so'mni;

2023 yil 1 sentyabrdan etiboran ikki yuz milliard so'mni;

2024 yil 1 apreldan etiboran uch yuz ellik milliard so'mni; 2025 yil 1 yanvardan etiboran besh yuz milliard so'mni tashkil etishi kerak. Bu o'zgarish

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 19 apreldagi O'RQ-831-sonli Qonuni asosida kiritildi⁵.

Bankning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag'laridan yoki davlatning qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

bank aksiyalarini bankning kreditorlari orasida joylashtirish va bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo'yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo'li bilan ularning haqini to'lash;

qimmatli qog'ozlarni bank aksiyalariga ayirboshlash;

bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini ushbu bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashkil etilayotgan yoki qo'shib yuborish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan bank ustav kapitali ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan, bank tashkil etilayotgan yoki qayta tashkil etilayotgan kundagi bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Bunda bank ustav kapitalining eng kam miqdori bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya berish to'g'risidagi ariza beriladigan paytgacha bank muassislari tomonidan shakllantirilgan bo'lishi kerak. Tashkil etilayotgan bankning ustav kapitaliga kiritilgan mablag'lar bankda ochilgan jamg'arma hisob varag'iga o'tkaziladi.

Banklar belgilangan muddatlarda o'z ustav kapitali miqdorini ko'rsatilgan talablarga muvofiqlashtirishi kerak. Ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar norezidentlarga davlat ulushini to'liq sotish orqali xususiylashtirilganda Markaziy bank boshqaruvi bank ustav kapitalini mazkur moddaning birinchi

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 19 apreldagi O'RQ-831-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son)

qismida belgilangan eng kam miqdorga muvofiqlashtirish bo'yicha belgilangandan boshqa muddatlarni o'rnatishga haqli.

Tizimli moliyaviy inqiroz holatida bank aksiyalari davlat qimmatli qog'ozlari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sotib olinishi mumkin.

Bank o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Bank ustavida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- bankning to'liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili) hamda elektron pochta manzili;

- ustav kapitalining miqdori;

- ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish tartibi;

- chiqarilayotgan aksiyalarning turlari va soni, aksiyalar turlarining nisbati;

- sof foydani taqsimlash, shuningdek zararlarning o'rnini qoplash tartibi;

- zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish tartibi;

- bank aksiyadorlarining huquqlari va majburiyatlari, shu jumladan ushbu Qonun talablariga muvofiqlikni taminlash uchun bank tomonidan so'rab olinadigan axborotni taqdim etish majburiyatlari;

- bankning boshqaruv organlari tuzilmasi, ularni tashkil etish tartibi, bank kuzatuv kengashi va boshqaruvi azolarining soni, vakolatlari va vazifalari haqidagi malumotlar;

- aksiyadorlar (muassislar) o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari;

- bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari;

- bankni qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Bankning ustavida belgilangan talablardan tashqari aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan malumotlar ham bo'lishi kerak.

Bankning ustavi, unga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar Markaziy bankda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Bankning ichki qoidolari, shuningdek ularga kiritiladigan keyingi o'zgartish hamda qo'shimchalar banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

2. Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish bosqichi.

Banklar aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Banklar Markaziy bankda davlat ro'yxatiga olingan paytdan etiboran yuridik shaxs maqomini oladi.

Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) asosida amalga oshiradi.

Litsenziya uning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

Litsenziyani yoki unga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Litsenziasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday faoliyat natijasida olingan daromad O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga olib qo'yiladi⁶.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomili quyidagi ikki bosqichdan iborat:

Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish;

bir vaqtning o'zida litsenziya bergan holda bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Amalga oshirilishi uchun qonunchilikka muvofiq alohida litsenziyalar yoki ruxsatnomalar olinishi talab etiladigan faoliyat banklar tomonidan tegishli hujjatlar olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun muassislar tomonidan bank tashkil etish bo'yicha o'z manfaatlarini Markaziy bankda ifoda etishga vakil qilingan shaxs (bundan buyon matnda ariza beruvchi deb yuritiladi)

⁶ O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son.

tasis shartnomasi imzolaganidan keyin uch oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

- tasis shartnomasini;
- ikki nusxadagi bank ustavini;
- tasis yig'ilishining bayonnomasini;
- muassislar ro'yxatini;

- hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar, hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan shaxslar mavjud bo'lmagan taqdirda, bankning ustav kapitalida eng ko'p ulushlarga ega bo'lgan, umumiy ulushi kamida ellik foizni tashkil etadigan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi axborotni, shuningdek «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotni;

- muassis bo'lgan yuridik shaxsning auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobotlarini;

- bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kiritilgan mablag'larning manbalari to'g'risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni;

- bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi azolari to'g'risidagi, bu azolarning ushbu «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan axborotni;

- bankning tashkiliy tuzilmasini;
- bankning ichki audit xizmati to'g'risidagi nizom loyihasini;

bankning keyingi uch yilga mo'ljallangan biznes-rejasini;

- keyinchalik bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lgan, bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosatining loyihalarining, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining ko'chirma nusxalarini;

- arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizada elektron pochta manzilini ko'rsatishga haqli. Elektron pochta manzilining ko'rsatilishi ariza yuzasidan qabul qilingan qaror to'g'risidagi xabarnomani olishga yoki axborot kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda qo'shimcha axborotni so'rab olinishiga bo'lgan rozilikdir.

Taqdim etilgan hujjatlarda Markaziy bank tomonidan kamchiliklar aniqlangan va ko'rsatilgan hujjatlar ariza beruvchi tomonidan to'liq hajmda taqdim etilmagan taqdirda, Markaziy bank ariza beruvchiga bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar va (yoki) taqdim etilishi zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilgan holdagi xabarnomani ariza taqdim etilgan kundan etiboran o'n besh kun ichida yuboradi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi ariza bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan etiboran uch oy ichida Markaziy bank tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Mazkur muddat ayrim hollarda to'rt oygacha uzaytirilishi mumkin.

Agar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va axborot bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun etarli bo'lmasa, Markaziy bank ariza beruvchidan qo'shimcha hujjatlar va axborot so'rashga haqlidir.

Ariza beruvchi Markaziy bank so'ragan hujjatlar va axborotni so'rov olingan kundan etiboran o'ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda taqdim etishi kerak, ushbu muddat mobaynida bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqiladigan uch oylik davr to'xtatib turiladi.

Markaziy bank ariza beruvchini qabul qilingan qaror to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan sanadan etiboran uch ish kuni ichida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olingan kundan etiboran olti oydan oshmagan muddat ichida yuridik kuchini saqlab turadi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma quyidagi hollarda amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilinadi:

- dastlabki ruxsatnoma soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda;

- ilgari baholashdan o'tgan va ushbu «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasi talablariga javob bergan muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo'lmaganda;

- ilgari baholashdan o'tgan va ushbu «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 36-moddasi talablariga javob bergan bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvi azolari endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo'lmaganda, shuningdek bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvining yangi tayinlangan azolari to'g'risida axborot taqdim etilmaganda;

- taqdim etilgan biznes-rejaga tarkibiy o'zgartishlar kiritilganda;

bankni xavfsiz va barqaror boshqarishni taminlab bo'lmashligini ko'rsatuvchi faktlar aniqlanganda.

Bankni tashkil etishda yoki bankning ustav kapitalida chet el banki ishtirok etganda ushbu «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlar qo'shimcha ravishda taqdim etiladi:

- chet el banki vakolatli organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish to'g'risidagi qarori;

- chet el bankining ustavi;

- chet el banki bankni nazorat qilish organining mazkur chet el banki uning konsolidatsiyalashgan nazorati ostida turishi, pul mablag'larini depozitlarga qabul qilish huquqiga ega ekanligi va unga bankni nazorat qilish organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish uchun ruxsatnomasi berilganligi to'g'risidagi yozma tasdiqnomasi yoxud shunday ruxsatnoma talab etilmasligi to'g'risidagi tasdiqnomasi;

- chet el banki kapitalining va kredit reytingining Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Markaziy bank yuqori kapital va kredit reytingi ko'rsatkichlariga ega bo'lgan xalqaro moliya institutlari, chet el banklari hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan bank tashkil etayotganda yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etayotganda dastlabki ruxsatnomani olishning alohida tartibini belgilashga haqli.

Norezident bo'lgan jismoniy shaxslarning va xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarning jami ulushi bank ustav kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Markaziy bank xalqaro moliya institutlari, chet el banklari va boshqa kredit tashkilotlari bo'lmagan, bank muassislari bo'lgan norezidentlarning kapitaliga hamda kredit reytingiga nisbatan, shuningdek norezidentlar joylashgan davlatning reytingiga nisbatan eng zarur talablarni belgilashga haqli.

Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etish nazarda tutilmaydigan davlatda yoki hududda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va shunday davlatda yoki hududda yashaydigan jismoniy shaxslar bankning muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas (bundan chet el fond bozorlarida bank aksiyalarini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar mustasno).

Bank tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishda Markaziy bank:

- Markaziy bank bilan chet el banki bo'lgan muassisning bankni nazorat qilish organi o'rtasida axborot ayirboshlash to'g'risidagi kelishuv mavjudligini;

- norezident joylashgan mamlakat vakolatli organlarining axborotini va fikrlarini inobatga oladi.

Bunday hujjatlar muassis bo'lgan bank ro'yxatga olingan erda joylashgan O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi yoki boshqa konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Markaziy bank litsenziyalashdan oldingi tartib-taomillar doirasida vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan maslahatlashishga haqlidir.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari Markaziy bank tomonidan so'ralgan, tegishli qarorni qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishi kerak.

Markaziy bank chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovnomalar yuborishga haqli.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- Taqdim etilgan hujjatlarning banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

- Baholangan muassislarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning mazkur modda talablariga muvofiq emasligi;

- bankning biznes-rejada ko'rsatilgan maqsadlarga erishishga qodir emasligi;

- tashkil etiladigan bank bilan yaqin aloqalarga ega bo'lgan bir yoki bir necha shaxsning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa mamlakat qonunlarida yoki normativ hujjatlarida ushbu shaxslarga nisbatan boshqa mamlakat vakolatli organlarining talablari mavjudligi yoxud ular tomonidan qo'llanilgan, Markaziy bankning nazorat qilish vazifasini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi taqiqlar hamda cheklovlar qo'llanilganligi yoki O'zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchiligiga rioya etish borasida boshqa moneliklarning mavjudligi;

- Markaziy bank tomonidan so'ralgan qo'shimcha hujjatlarning va axborotning taqdim etilmaganligi.

Yaqin aloqalar deganda ikki yoki bir necha shaxs quyidagilar vositasida o'zaro bog'liq bo'lgan holat tushuniladi:

- yuridik shaxs ovoz berish huquqlarining yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida yigirma foiziga bevosita egalik qilishni yoki nazoratni qo'lga kiritish;

- nazorat qilish;
- ikki shaxs yoki barcha shaxslar o'rtasida yoki shu shaxslar va uchinchi shaxs o'rtasida o'rnatilgan doimiy nazoratning mavjudligi.

Markaziy bankning asoslantirilgan mulohazasi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Dastlabki ruxsatnomani berishni rad etish to'g'risidagi xabarnoma ariza beruvchiga belgilangan muddatlarda va shakllarda, rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yuboriladi.

Rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf qilinganligi inobatga olingan holda taqdim etilgan ariza va hujjatlar yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya olish uchun ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma olinganidan keyin olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi ariza;
 - ushbu Qonun bilan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan summada bankning ustav kapitali shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek muassislarning ro'yxati;
 - bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari to'g'risida ularning ushbu «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 36-moddasi talablariga muvofiqligini baholashdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborot;
 - tashkil etilayotgan bank joylashgan erdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining bank binolari, ularning muhofaza qilinishi taminlanganligi, uskunalar, ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy taminotining Markaziy bank talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
- «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 16 va 17-moddalarida sanab o'tilgan barcha hujjatlarning elektron shakldagi ko'chirma nusxalari.

Agarki bankning faoliyati xavfsiz tarzda amalga oshirilishi taminlansa hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini, shuningdek bank tizimi lozim darajada ishlashini kafolatlovchi korporativ boshqaruv talablariga rioya etilsa, Markaziy bank bankni davlat ro'yxatiga olish hamda litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish haqidagi qaror ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan etiboran bir oydan oshmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan sanadan etiboran uch ish kuni ichida ariza beruvchini qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Litsenziya berilganligi uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Bankning davlat ro'yxatiga olinganligi va unga litsenziya berilganligi to'g'risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlangan taqdirda litsenziya Markaziy bank tomonidan chaqirib olinadi.

Bankni davlat ro'yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- Bankning shakllantirilgan ustav kapitali miqdorining bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish paytida ushbu Qonun talablariga muvofiq emasligi;

- ilgari baholashdan o'tgan va qonun talablariga javob bergan muassislarning, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning endilikda ushbu talablarga muvofiq emasligi;

- muhim ahamiyatga ega xodimlarning Markaziy bankning malaka talablariga muvofiq emasligi;

- bankning binolari, ularning muhofaza qilinishi taminlanganligi, uskunalar va ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy taminotining Markaziy bank talablariga muvofiq emasligi.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi xabarnoma ariza beruvchiga «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatda va shakllarda, rad etish sabablari hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, takroran ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi.

Bankni ro'yxatga olish va litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak hamda ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas.

Ariza beruvchi tomonidan bankni davlat ro'yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni qayta ko'rib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan etiboran bir oydan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani qayta ko'rib chiqish chog'ida bankni davlat ro'yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Bankni davlat ro'yxatiga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi ariza yangidan berilgan deb hisoblanadi.

1.2. Tijorat banklari faoliyati tamoyillari va funksiyalari

Tijorat banklarining faoliyat ko'rsatish asoslari mohiyati ular faoliyatini tashkil qilishning asosiy tamoyillarida o'z ifodasini topadi:

1. Tijorat banklarinig kredit portfeli resurslarini yaratishda asosan chetdan jalb qilingan resurslarga tayanib ishlash tamoyili.
2. Tijorat banklarining o'zida bor ya'ni haqiqatda mavjud mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatishi tamoyili.

3. Bank faoliyatining to'la iqtisodiy mustaqilligi siyosiy va iqtisodiy mustaqilliklari.
4. Banklar faoliyatining tijorat tavsifi.
5. Mijozlar manfaatini himoya qilish.
6. Banklarning daromadligi va ular faoliyatining universallasuvi.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarni tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozit va omonatlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhitining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Undan tashqari chetdan jalb qilingan va qo'yilgan mablag'lar mutanosibligi banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishni kuchaytiradi va bu mablag'lardan unumli foydalanishga asos yaratadi. Tijorat banklarining passiv operatsiyalaridan aktiv operatsiyalari hajmi bog'liqli bo'lib topiladi.

Tijorat bankning ikkinchi va asosiy tamoyillaridan biri bu haqiqatda mavjud bo'lgan o'zida bor bo'lgan mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatishidir. Tijorat banki boshqa bank vakillik hisob raqamiga naqd pulsiz to'lovni amalga oshirish, boshqalarga kredit xizmatini ko'rsatish va vakillik hisob varag'ida qolgan qoldiq chegarasida naqd pullik operatsiyalarni bajarishi mumkin. Tijorat banklarining haqiqatda mavjud mablag'lar chegarasida faoliyat ko'rsatishi deganda, bankning nafaqat o'z resurs va kredit qo'yilmalarining mutanosibligi, balki bankning aktivlari bilan uning jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi mutanosibligini taminlashi tushuniladi. Bunda avvalambor, passivlar va aktivlar muddatlarining bir xilligi inobatga olinishi lozim. Binobarin, agar bank mablag'larni qisqa muddatga jalb etgan bo'lsa va bu mablag'larni uzoq muddatli ssudalarga joylashtirsa, bankning majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtda amalga oshira olishi bir muncha muammolar bilan bog'liq bo'lishi, bu esa o'z navbatida bankning moliyaviy holatiga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, tijorat banklari passiv va aktivlarining diversifikatsiyasi ham katta ahamiyatga ega.

Bank aktivida risk darajasi yuqori bo'lgan ssudalar miqdorining ko'payishi, bankning resurslari hajmida o'z mablag'lar xissasining oshirilishini taqazo qiladi.

Shunga ko'ra, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy normativlarni aniqlashda bank aktivlarining passivlarga mutanosib bo'lishini inobatga olish lozim.

Bank qonun doirasida o'z resurslaridan mustaqil ravishda foydalanishi mumkin, lekin uning aktiv operatsiyalari hajmini ma'muriy taqiqlov usullari bilan chegaralash mumkin emas.

Mamuriy cheklovlar bir martalik va favqulodli hollarda qo'llanilishi mumkin. Bu cheklovlarni doimiy tarzda qo'llash bankning tijorat asoslarining buzilishiga olib keladi. Shunga ko'ra, banklar faoliyatini tartibga solish uchun iqtisodiy me'yorlardan keng foydalaniladi. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar doirasida kredit resurslarini tashkil qilish va ishlash tamoyili bank faoliyatining poydevori hisoblanib, uning depozitlar jalb qilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, passivlarni jalb qilish bo'yicha raqobat muhiti yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Undan tashqari jalb etilgan va qo'yilgan mablag'larning mutanosibligi tamoyili banklarda depozitlarni jalb etishga qiziqishini kuchaytirish va bu mablag'lardan unumliroq foydalanishga qaratilgan. Bu tamoyil asosida ishlash tijorat banklarni likvidligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchi tamoyil bu bankning to'la iqtisodiy mustaqilligidir. Bu tamoyilga asosan bank o'z va jalb etilgan mablag'lardan mustaqil foydalanishi, mijozlar va omonatchilarni o'zi mustaqil ravishda tanlashi, kredit siyosatini mustaqil tuzishi va amalga oshirishi, foiz stavkalarini mustaqil o'rnatishi va o'zgartirishi, daromadlarni mustaqil ravishda taqsimlashi va boshqa faoliyat turlarini mustaqil bajarishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Banklar faoliyati to'g'risidagi amaldagi huquqiy - me'yorlarga asosan barcha tijorat banklari o'z fond va daromadlaridan iqtisodiy jihatdan mustaqil foydalanishlari mumkin. Depozit siyosatini olib borishda o'z mintaqasida joylashgan tijorat banklaridan depozit foizlari farq qilishini tijorat banklari o'zlari mustaqil yochadi.

Tijorat bankning soliq to'lagandan keyingi qolgan foydasi aksionerlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Aksionerlarning umumiy yig'ilishi bankning har turli fondlarga ajratmalarining norma va miqdorini, aksiyalarga to'g'ri keluvchi dividend summasini belgilaydi.

Majburiyatlari bo'yicha tijorat banki o'z mablag'lari va mol - mulki bilan javob beradi. Tijorat banki o'tkazadigan operatsiyalarining riskini o'z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil asosida tijorat bank va mijoz munosabatlari yotadi, ya'ni bank ssuda berayotgan bozor me'zonlaridan daromad, risk va likvidlik darajalaridan kelib chiqqan holda beradi.

Tijorat bank faoliyatini olib borishning to'rtinchi tamoyili bank faoliyatining tijoratlashuvi bo'lib, ya'ni ko'proq foyda olish yo'lida harakat etadi. Bunda banklarning tijorat obekti vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari hisoblanadi. Bu pul mablag'lari bankka tegishli bo'lmagan bo'lsada, faoliyati davomida bank ularni o'z nomidan joylashtiradi.

Bank tijorati kam investitsiya qilib ko'proq daromad olish tamoyiliga asoslangani uchun, uning majburiyatlarining passivlaridagi ulushi kam bo'lishi kerak ya'ni bank marjaga ega bo'lishi kerak.

Tijorat banki kredit berish va investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida iloji boricha ko'p daromad olishni mo'ljallaydi.

Undan tashqari bank faoliyatining xavfsizligi ham bank tijoratining asosidan biri hisoblanadi. Bank har doim risk bilan bog'liq faoliyat ko'rsatadi. Bank faoliyatida risk darajasi qancha kam bo'lsa va xavfsizligi yuqori bo'lsa, bankning daromadi ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining yana bir muhim tamoyili shundaki, bank iqtisodiy mustaqil subekt sifatida o'zining kapitali, daromadi bilan risk qilishi mumkin, lekin u mijozning daromadi yoki kapitali bilan risk qilishi mumkin emas. Qisqacha qilib aytganda, bank faoliyati «hamma narsa mijoz uchun», «mijoz har doim hoq» degan tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak. Bu tamoyillar bank mijoz uchun to'laligicha javob berish zarurligini bildiradi, uning daromadini taminlaydi.

Mijozlar tomonidan qaraganda bank har doim sherik tashkilot hisoblanadi. Sheriklik munosabatlari ikki tomonning o'zaro qiziqishlariga va roziliklariga

asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi tufayli bank mijozlar manfaatini taminlashni birinchi o'ringa qo'yishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatining keyingi tamoyili bu banklar ko'rsatadigan xizmatlar va operatsiyalarning universallasuvi va diversifikatsiyasi bo'lib, banklar foliyatining turli tarmoq va sohalarni qamrab olishini kam risklilik asosida yuqori daromad olishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Banklar qaysi mulk shakliga asoslanganligidan qat'iy nazar ularning faoliyati yuqoridagi tamoyillarga asoslanadi.

Oldingi paragrafda takidlanginidek banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aksiyador banklar bo'lishi mumkin. Aksiyadorlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksiyadorlar bo'lishi mumkin.

Bazi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdagi banklarinng qatnashchilari(tasischilari) ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar - jismoniy shaxslarning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma - xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar malum yo'nalishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eksport - import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka - zamin banklarini kirishi mumkin. Lekin, keyingi vaqtlarda tijorat banklarining universallashib, raqamlashib ketganining guvohi bo'lmoqtamiz.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin.

Tarmoqlarga xizmat ko'rsatishga qarab: sanoat, qurilish, qishloq xo'jalik, savdo va boshqa banklarga klassifikatsiyalanar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitda banklarning roli, ularning iqtisodiyotga tasiri o'sib bormoqda. Kredit muassislari, aholi, korxona, tashkilotlar, kompaniyalarning bo'sh pul mablag'larini yig'ish va joylashtirishdan tashqari, korxonalar faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va korxonalar faoliyatini kuzatib borishi mumkin.

Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala sohasi o'rtasida, taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha investitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalq xo'jaligida progressiv yutuqlarga erishishni taminlashi mumkin.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi. Bu sababli tijorat banklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;
- korxona, tashkilotlar va aholini kreditlash;
- iqtisodiyotda hisob - kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
- moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
- iqtisodiy - moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarini yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag' egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun malum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat bankining bo'sh turgan mablag'larni jalb etish ularni kapitalga aylantirish funksiyasi asosiy funksiyalardan hisoblanib, jalb etilgan mablag'lardan daromad qarz mablag'lariga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi.

Bankning vositachilik operatsiyalari bozor iqtisodiyoti tizimini rivojlantirish borasida bank o'z faoliyatida risk va noaniqlikning oldini olishga sharoit yaratadi. Pul mablag'lari bank vositachilgisiz ham kreditor va qarz oluvchi orasida

muomalada bo'lishi mumkin, ammo bu bilan mablag'larni yo'qotish bilan bog'liq risk darajasi oshadi va mablag'larni o'z vaqtida qaytarib berish muammolari yuzaga keladi. Bu muammolarning yuzaga kelishi shundan iboratki, kreditor va qarz oluvchi bir - birovi haqida etarli darajada malumotga ega emasligi, mablag'larga bo'lgan talabning taklif bilan doimo miqdoran va bir vaqtda teng emasligidadir. Tijorat banklari mablag'larni depozitga jalb etishi, ssuda berishi mumkin. Bank o'z aktivlari bo'yicha keng diversifikatsiya usulini qo'llab omonatlarni qaytara olmaslik riski darajasini kamaytirishi mumkin.

Iqtisodiy tizimni qayta qurish uchun asosan va birinchi galda ichki xo'jalik jamg'armalariga tayanish lozim. Tijorat bank moliya bozoriga kredit resurslariga talab bilan kirar ekan, nafaqat iqtisodiyotda mavjud bo'lgan barcha jamg'armalarni maksimal darajada yig'ishga, balki joriy iste'molni chegaralash bilan jamg'armani shakllantirishga samarali tasir ko'rsatmog'i lozim. Jamg'arma mablag'larni shakllantirishda tijorat banklarni depozit siyosatining tasiri katta. Omonatchilarga yuqori foizlardan tashqari, bank kreditlariga yuqori kafolat va ishonchlilik kerak. Omonatlarni qo'yishda xavfsizlik bilan bir qatorda mijoz tijorat bank faoliyati etarlicha malumotga ega bo'lishi va bu bilan u bankni moliyaviy ahvoliga baho bera olishi mumkin.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxona, tashkilotlarni, aholini va turli subektlarni kredilash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foylanishiga beradi. Bank krediti hisobidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlari - sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir - birlarining mablag'larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o'z ustavlarida ko'rsatilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun Markaziy bankka murojat qilishlari mumkin.

Tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari ularning o'zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul - kredit siyosatining bosh yo'nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qimmatli qog'ozlar bozorining yaxshi taraqqiy etmagan bosqichlarida iqtisodiyotda mavjud bo'lgan asosiy moliyaviy resurslar banklarga omonatlarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Banklarning keyingi funksiyasi bu mustaqil subektlararo to'lov operatsiyalarini amalga oshirish funksiyasidir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to'lov mexanizmidan etakchi o'rin tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot to'lovlarni amalga oshirishni isloh qilish va rivojlantirish orqali mamlakatimiz to'lov tizimida tijorat banklarning o'rni kengaymoqda.

Undan tashqari tijorat banklar moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug'ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish bilan shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalari asosida quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;

• bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari va boshqa turdagi operatsiyalarni bajaradilar.

II-Bob. O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining zamonaviy holati va uning taxlili

2.1. O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari va uning taxlili

Iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash hamda pul muomalasini boshqarish jarayonlarida tijorat banklarining ahamiyati juda katta. Iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan tijorat banklari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni qay darajada bajara olayotganliklariga ham bog'liq bo'ladi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida takidlab o'tganidek, bu borada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar hali juda ko'p. Jumladan, "bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak. Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur"⁷.

Raqamli va innovatsion texnologiyalar shiddat bilan bank amaliyotiga kirib kelayotgan sharoitda yuqorida qayd etilgan vazifalarni talab darajasida bajarish uchun tijorat banklari tomonidan juda katta tayyorgarlik ko'rish va tegishli tadbirlarni o'tkazish talab etiladi. O'tkazilishi zarur bo'lgan tadbirlar natijasi tijorat banklari faoliyatining qay darajada oqilona va samarali tashkil etilganligi bilan chambarchas bog'liq. Xuddi shu sababli tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholash zaruriyati paydo bo'ladi.

Demak, yangi iqtisodiy sharoitda tijorat banklarining samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish muhim ilmiy va

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2018 yil 28 dekabr. "Xalq so'zi", 2018 yil 29 dekabr.

amaliy ahamiyatga ega masalalar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalari talab darajasida bo'lishini taminlash jarayoni tijorat banklarining samaradorligini ob'ektiv baholash tizimini yaratishni talab etadi. Bu muammoning ijobiy hal etilishi esa banklarning to'lov qobiliyati va likvidligini oshirishga ijobiy tasir ko'rsatadi. Shu asosda banklarning iqtisodiyotni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yanada oshishiga iqtisodiy zamin yaratiladi⁸.

Mustaqillik yillarida respublikamizning bank tizimi respublikaning butun iqtisodiyoti kabi bir qancha takomillashib, bu sohada bir qancha yutuqlar qo'lga kiritildi.

Umuman olganda, bank infratuzulmasi bira qancha kengayib va etilishib borayotganligi, o'z navbatida, bank xizmatlari bozorida raqobatning va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yanada yaxshilanishiga hamda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajisining oshishiga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishning yana bir muhim ko'rsatkichi aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarning bosh pul mablag'larini banklardagi depozitlarga jalb qilishga alohida etibor qaratilmoqda.

Shuni alohida takidlash zurur, tijorat banklari tomonidan xalqning talabi va o'zlar hohishidan kelib chiqqan holda yangi omonat turlarin joriy qilib hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha keng xajmli ishlar amalga oshirilib kelmoqda.

O'z navbatida, xalqning real daromadlarining yuksalib borayotganligi, banklardagi omonatlarining davlat tomonidan to'liq kafolatlanganligi, mijozlarning birinchi talabi bo'yicha omonatlar qaytarilishining taminlanganligi hamda bank omonatlaridan olingan foyzli daromadlarining soliqlikdan ozod etilganligi xalqning tijorat banklardagi omonatlari miqdorining barqaror yuksalib borishini taminlamoqda.

⁸ «Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish masalalari tadqiqiga yangicha yondoshuv xususida» "Science and Education" Scientific Journal August 2021 / Volume 2 Issue 8 www.openscience.uz 680.

Bunnan tashqari, banklarning resurs bazasini kengaytirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlarning bosh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarining chiqarilishiga alohida etibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PP-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”da davlat ulushi bo‘lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank faoliyatining zamonaviy standartlari, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, bankdagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shu bilan birga, davlat ulushi bor bo‘lgan tijorat banklari va korxonalarni bira vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini qisqartirish belgilangan⁹.

Bu bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bank tizimi sonli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy taminotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda” deb atab o‘tdi¹⁰.

2020 yili boshlangan koronavirus pandemiyasi va u tufayli kiritilgan cheklovlar tufayli yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklar, jumladan, muammoli kreditlarning ulushi ko‘payishi, kreditlar bo‘yicha risklar ortishi va banklarning ayrim xizmatlariga bo‘lgan talabning keskin tushib ketishi kabi omillarning banklar samaradorligiga tasirini baholash kabi masalalarga ham alohida etibor berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan 2023 yil I chorak uchun **“Banklar faollik indeksi”** hisoblandi va ushbu indeksga asosan banklarning reytingi yangilandi. Mazkur indeks mamlakatimizdagi 29 ta tijorat

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kungi PP-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi № 19 (7521). 2020 yil 25 yanvar.

banklari uchun, banklarning hajmiga qarab katta (**17 ta**) va kichik (**12 ta**) banklarga guruhlangan holda hisoblandi¹¹.

Indeksni hisoblashda 21 ta ko'rsatkich bo'yicha 7 ta yo'nalish baholandi: moliyaviy vositachilik, moliyaviy ommaboplik, kapitalning etariligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, rentabellik va likvidlilik.

Tadqiqot har chorakda xususiy sektorning bank aktivlaridagi ulushi o'zgarishini monitoring qilish, shuningdek, mamlakat bank sektoridagi islohotlar va transformatsiya jarayonlarining samaradorligini baholash maqsadida olib borilmoqda.

3-jadval.

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida malumot (mlrd so'm)¹²								
Ko'rsatkichlar nomi	01.03.2022 y.			01.03.2023 y.			Nominal o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi, (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) foizda
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Jami aktivlar	436 834	208 251	48%	561 822	267 371	48%	29%	26%
Jami kredit qo'yilmalar	327 180	161 347	49%	397 637	186 796	47%	22%	19%
Jalb qilingan jami depozitlar	148 350	57 134	39%	210 652	79 966	38%	42%	40%
Jami kapital	71 832	348	0,5%	81 582	362	0,4%	14%	14%

Jadval malumotlaridan malum bo'lishicha, 2023 yil 1 mart holatiga ko'ra respublika bank tizimi aktivlari 561,8 trln. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,6 foizga o'sgan, majburiyatlari 480 trln. so'm (o'sish 31,6%), kreditlar qoldig'i — 398 trln. so'm (21,5%) hamda depozitlar— 211 trln. so'm (42%)ni tashkil qilgan.

¹¹ <https://review.uz/oz/post/banki-uzbekistana-v-sopostavlenii-chto-izmenilos>.

¹² Markaziy bank ma'lumotlari (<https://cbu.uz>) asosida muallif tomonidan tayorlandi

Bank tizimi aktivlarining 78%, kredit portfelining 82,5%, hamda depozitlarning 62,1% 11 ta davlat ulushi mavjud banklar hissasiga, qolgan qismi xususiy banklar hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati davlat banklarida 251 foizni, boshqa banklarda ushbu ko'rsatkich 87 foizni tashkil qilgan.

4-jadval.

Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari (mlrd. co'm)¹³		
Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.03.2022 y.	01.03.2023 y.
Foizli daromadlar	9 596	12 116
Foizli xarajatlar	5 648	7 828
Foizli marja	3 948	4 288
Foizsiz daromadlar	5 259	8 391
Foizsiz xarajatlar	891	1 473
Operatsion xarajatlar	1 675	2 358
Foizsiz daromad (zarar)	2 693	4 560
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	4 339	5 105
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	630	1 160
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	1 672	2 583
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	329	523
Sof foyda (zarar)	1 343	2 060
Bank tizimi daromadlik ko'rsatkichlari		
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,3	2,8
Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	11,3	15,3
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	5,4	4,6
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	7,2	6,5
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	6,5	5,4
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	5,4	4,6

Banklar rentabellik darajasida ham o'sish kuzatildi. Foizli daromadlar 26,3 foizga, foizsiz daromadlar 59,6 foizga, sof foyda 53,4 foizga oshgan (4-jadval).

Jismoniy shaxslarning bank tizimidan foydalanishda faolligi oshgan. Kredit portfelining 26,5 foiz jismoniy (2022 yilning mos davrida – 21,7 foiz), 73,5 foiz

¹³ Markaziy bank ma'lumotlari (<https://cbu.uz>) asosida muallif tomonidan tayorlandi.

yuridik shaxslar (78,3 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, depozitlar qoldig'i salmog'i, mos ravishda, 30 foiz (25,3 foiz) va 70 foiz (74,7 foiz)ni tashkil qilgan.

5-jadval.

Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i to'g'risida kreditlar turlari bo'yicha¹⁴			
Ko'rsatkich nomi	01.03.2022 y.	01.03.2023 y.	O'zgarishi, (foizda)
Jami kredit qoldig'i	327 180	397 637	22%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	70 982	105 189	48%
Ipoteka kreditlari	37 083	47 632	28%
Mikroqarzarlar	10 970	15 320	40%
Iste'mol kreditlari	11 799	25 567	117%
Ta'lim kreditlari	402	2 384	492%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	10 676	14 184	33%
Boshqa kreditlar	51	101	99%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	256 198	292 448	14%
Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	238 072	277 742	17%
Lizing va faktoring	2 156	1 562	-28%
Banklararo kreditlar	1 452	3 209	121%
Mikrokreditlar	10 124	5 016	-50%
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	4 394	4 919	12%

Muammoli kreditlarning salmog'i kamaygan. Hisobot davrida muammoli kreditlarning (90 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan kreditlar, *Non-performing loan – NPL*) jami kreditlardagi ulushi o'rtacha 3,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 foiz bandga pasaygan (6-jadval).

¹⁴ Markaziy bank ma'lumotlari (<https://cbu.uz>) asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida
2023 yil 1 mart holatiga malumot (mlrd. so'm)¹⁵

№	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kredilar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		397 637	15 052	3,8%
Davlat ulushi mavjud banklar		328 048	13 638	4,2%
1	O'zmilliybank	87 211	2 720	3,1%
2	O'zsanoatqurilishbank	51 689	1 700	3,3%
3	Agrobank	45 811	1 811	4,0%
4	Asaka bank	36 375	1 727	4,7%
5	Ipoteka bank	32 382	1 007	3,1%
6	Xalq banki	21 521	2 523	11,7%
7	Qishloq qurilish bank	20 444	942	4,6%
8	Mikrokreditbank	13 337	705	5,3%
9	Turon bank	9 671	313	3,2%
10	Aloqa bank	9 536	191	2,0%
11	Poytaxt bank	70	0,6	0,9%
Boshqa banklar		69 590	1 414	2,0%
12	Kapital bank	17 117	158	0,9%
13	Hamkor bank	11 652	74	0,6%
14	Ipak yo'li bank	8 370	183	2,2%
15	Oriyent Finans bank	5 603	41	0,7%
16	Invest Finans bank	5 082	37	0,7%
17	Trast bank	3 552	210	5,9%
18	Davr bank	3 358	64	1,9%
19	Tenge bank	2 687	93	3,4%
20	Aziya Alyans bank	2 366	33	1,4%
21	Anor bank	2 259	65	2,9%
22	O'zKDB bank	2 045	0,0	0,0%
23	Tibisi bank	1 753	35	2,0%
24	Garant bank	1 173	96	8,1%
25	Ziraat bank	1 109	55	5,0%
26	Universal bank	930	11	1,2%
27	Ravnaq bank	316	229	72,6%
28	Madad invest bank	196	28	14,5%
29	Eron Soderot bank	21	1,2	5,8%
30	O'zagroeksportbank	0,6	0,4	76,5%
31	Smart bank	0,0	0,0	0,0%
32	Uzum bank	0,0	0,0	0,0%

Yirik banklar reytingida «Kapital bank» etakchilikni saqlab qolgan bo'lsa, «Aziya Alyans» bank 1 pog'onaga ko'tarilib, reytingning 3 pog'onasiga tushgan «Hamkor bank» bilan o'rin almashdi.

¹⁵ Markaziy bank ma'lumotlari (<https://cbu.uz>) asosida muallif tomonidan tayorlandi

«Trast bank» ketma-ket uchinchi chorak uchun reytingda o'z mavqeini yo'qotmoqda. Ushbu bank yana 1 pog'onaga pastladi va 5-o'rinni egallab, «Ipak yo'li bank»ka o'z o'rnini bo'shatib berdi. Shu bilan birga, «Ipoteka bank» va «Milliy bank» 2 pog'onaga, «Xalq bank», «Oriyent Finans bank» va «Asaka Bank» 1 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa, «Invest Finans bank» va «Agrobank» bir yo'la 3 pog'onaga, «Turon Bank» 1 pog'onaga pastlagan, qolgan banklar o'z o'rinlarini saqlab qolishgan.

Davlat ulushi mavjud yirik banklardan faqat «Agrobank» va «Turon bank» pastladi va mutanosib ravishda 14-o'rinni hamda 17-o'rinni egalladi.

Shu bilan birga «Agrobank» mazkur chorakda faqat kapital etarlilik va likvidlilik ko'rsatkichi bo'yicha pastlagan bo'lsa, «Turon bank» daromad olish salohiyati ko'rsatkichi sezilarli pasaygan.

Davlat ulushi mavjud yirik banklardan «Ipoteka bank» 2 pog'onaga ko'tarilib, 7-o'rinni egalladi. Bank mazkur chorakda aktivlari sifati ko'rsatkichi bo'yicha pastlagan bo'lsa, kapital etarliligi, likvidlilik hamda boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari o'sgan. Biroq, Moliya vazirligidan olingan depozitlar va kreditlar miqdorini o'z majburiyatlariga nisbati yuqoriligicha qolmoqda.

Kichik banklar reytingida «Davr bank», «Universal bank» va «Ziraat bank» etakchi o'rinlarni saqlab qolgan bo'lsa, «Tibisi bank» 2 pog'onaga ko'tarilib 4-o'rinni egallagan

«Tibisi bank» kapital etarliligi bo'yicha ko'rsatkichi sezilarli pasaygan bo'lsada, daromad olish salohiyati hamda boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi reytingdagi o'rni ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

«Tenge bank», «Anor bank», «Poytaxt bank» va «O'zagroeksport bank» 1 pog'onaga pasaydi. Shu bilan bir vaqtda, «Madad invest bank» va «Garant bank» 1 pog'onadan ko'tarildi.

«Ravnaq bank» va «O'zKDB» bank o'tgan davrga nisbatan o'z mavqelarini saqlab qoldilar¹⁶.

¹⁶ <https://review.uz/oz/post/banki-uzbekistana-v-sopostavlenii-chto-izmenilos>.

2.2. Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati va uning tahlili

Globalashuv sharoiti mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini ham jadallashtirib yubordi. Bu suratlar ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, sport, qo'yingki, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z ifodasini topyapti. Bunday tendensiyalar, albatta, moliya bozorlari, tijorat banklari, moliyaviy mexanizmlar, xususan, investitsiyalar oqimi qiyofalarini mutlaqo o'zgartirib yubordi.

Binobarin, bugun qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishayotgani aksiomaga aylanib ulgurdi.

Prezidentimiz takidlaganidek, "investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

Xo'sh, mazkur muhim yo'nalishda tijorat banklari qanday ishtirok etyapti? To'g'ri, yurtimiz tarixida ilk marta O'zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqarildi. Bu borada "J.P.Morgan", "Citibank", "Deutsche Bank" kabi etakchi xalqaro investitsiya banklari bilan hamkorlik olib borilyapti.

Lekin xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimiz bank-moliya salohiyatini to'la namoyon etish uchun yana qanday choralar ko'rilmoqda yoki ko'rish kerak deb savol quyamiz?

Binobarin, so'nggi yillarda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Davlat rahbarining topshirig'i bilan hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilmoqda.

Zero, shu asosda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib keladi. Pirovardida davlat banklari ulushi bosqichma-bosqich kamayib boradi va sohada raqobat muhitini yaxshilash, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va

madaniyatini, ayniqsa, ularning investitsion aktivligini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Bu yo'lda moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini ravnaq toptirishga alohida etibor qaratilyapti. Sarmoyadorlar uchun keng va qulay sharoitlar yaratib berilyapti. Bu yo'ldagi birinchi qadam albatta valyuta bozorini erkinlashtirib borilayotgani hisoblanadi.

Aynan mazkur omillar tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish, institutsional asoslarini takomillashtirishga turtki bo'lyapti.

Bu Taraqqiyat strategiyasida belgilab bergan ustuvor yo'nalishlariga uyg'undir. Zotan, unda bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini taminlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlashni yanada kengaytirish mustahkamlab qo'yilgan.

Yuqoridagi fikrlarni xalqaro va mahalliy ekspertlar ham tasdiqlaydi. Ularning etirof etishlaricha, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xo'jalik subektlarining asosiy kapitalini yangilash va texnologik jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan ham xo'jalik subektlari moliyaviy oqimlarni diversifikatsiya qilish, xo'jalik tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan investitsion faoliyatni faollashtirishlari zaruratga aylanib boryapti.

Tasavvur qiling tijorat banki investor rolida. U ushbu maqom ostida bevosita va bilvosita daromad olish maqsadida o'z resurslarini muayyan muddatga real aktivlarni tashkil etish yoki sotib olishga, moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. O'z navbatida banklarning investitsion faoliyati ularning moliyaviy vositachilik roli orqali ham yuzaga chiqadi. Bu makroiqtisodiy jihatga ham ega. Aynan shu prizma orqali qarasak, tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida

xo'jalik subektlarining pul-kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshishini rag'batlantiradi, jamg'armalarining investitsiyaga transformatsiyalashuvini taminlaydi.

Shu boisdan ham olimlarning aytishicha, makroiqtisodiy jihatdan yondashilib, banklarning investitsion faoliyati deganda, iqtisodiyot, mamlakat va mintaqalar ko'lamida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarining investitsion talablarini qondirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Ayrim ekspertlar esa investitsion faoliyatdan olingan daromad, investitsiyalarning umumiy aktivlardagi salmog'i ko'rsatkichlariga qarab tijorat banklarini investitsion bank sifatida etirof etadilar. Masalan, F.Allen va A.Santamero o'zining "Moliyaviy intermeditatsiya nazariyasi" maqolasida investitsion bank deganda muayyan biznes sohada faoliyat yurituvchi tijorat banki yoki investitsion bank sifatidagi alohida institutsional shaklni emas, balki turli moliyaviy maslahatlar beruvchi malakali vositachilikni tushunish muhim ekanligini aytib o'tishgan. "Aynan investitsion banklar professionalizm, nou-xau va texnologiyalar orqali moliyaviy bitimlarga kirishuvchi tomonlarga qulayliklar yaratadi", — deydi ular.

Shu manoda investitsion bank kompaniyalarning an'anaviy biznes faoliyatini moliyalashtirish uchun oddiy instrumentni emas, balki ularning murakkab moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun taklif etiladigan mahsulotlar va xizmatlar tizimini anglatishi to'g'risida fikr bildiriladi. Aynan shundan kelib chiqib investitsion bank xizmatlari beshta strategik muhim biznes sohalariga ajratiladi. Kapital bozorlari, korporativ moliya, merchant-benking, loyihalar moliyasi, tavakkalchilikni boshqarish shular jumlasidandir.

Masalan, tijorat banklarining kapital bozorlaridagi investitsion faoliyati nimalarda namoyon bo'ladi dersiz? Ular birlamchi bozordagi operatsiyalar, xususan, aksiyalar bozoridagi xizmatlar (emissiya qilish va joylashtirish, tadqiqot, homiylik, listingga kiritilgandan keyingi ko'mak); qarz majburiyatlari bozoridagi xizmatlar (emissiya qilish va joylashtirish, sekyuritizatsiyalash, tadqiqot va boshqalar)ni o'z ichiga olsa, ikkilamchi bozorda esa aksiyalar bozoridagi xizmatlar

(sotish, diling, brokerlik, market-meyking, aktivlarni boshqarish); qarz majburiyatlari bozoridagi xizmatlar (sotish, diling, brokerlik, market-meyking, aktivlarni boshqarish) kabi operatsiyalarni qamrab oladi.

Korporativ moliya yo‘nalishidagi biznes faoliyat esa egalikdagi mulkni qayta taqsimlash xizmatlari (birikish va qo‘shib olish va boshqalar), inqirozdagi kompaniyani restrukturizatsiya qilish xizmatlari, moliyaviy maslahat xizmatlarini ifodalaydi.

Tijorat banklari investitsion faoliyatida merchant benking ham muhimdir. Sababi, shu asosda kompaniya faoliyatining dastlabki bosqichida aksiyalarga investitsiya qilish (venchur kapital), o‘rish va egalikdagi mulk bazasini restrukturizatsiya qilish maqsadida aksiyalarga investitsiya qilish (xususiy kapital) imkoniyati yaratiladi.

Loyihalar moliyasi, ya’ni tuzilmaviy moliyada esa xususiy investitsiya tashabbuslari, aralash, ya’ni davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

Sanoat va moliya tavakkalchiliklarini boshqarish xizmatlari, tavakkalchilikni o‘lchash va qoplash bo‘yicha konsalting xizmatlari ham tijorat banklarining investitsion faoliyatida, boshqacha aytganda, ularning investitsion bank ekanligini tasdiqlovchi asosiy parametrlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham tijorat banklarining investitsion siyosatini aynan shulardan kelib chiqib zamon talablariga moslashtirish qat’iy talab etilyapti. Bunda ularning investitsion faoliyatning maqsadli mo‘ljallari tizimini tashkil etish va mazkur maqsadlarga erishish usullarini erkin tanlash uchun imkoniyat berilyapti. Institutsional jihatdan qaraganda, bu investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda deganidir. Aynan shu nuqtai nazardan tijorat banklarimizning muayyan faoliyati investitsion aktivlarning muvofiq tarkibi va hajmini taminlash, tavakkalchilikning maqbul darajasida aktivlar daromadlilikini oshirishga yo‘naltirilishi kerak. O‘z navbatida bank resurs bazasini kengaytirish va bank resurslari saqlanishini taminlash ham istiqbol maqsadlari qatoridan joy olishi lozim. Shundagina

investitsion qo'yilmalarning likvidliligi, xavfsizligi va daromadliligi hamda o'sib borishi uchun pragmatik sharoit yaratiladi. Shu o'rinda investitsiya yo'nalishida tijorat banklarini rag'batlantiruvchi omillar bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin: raqobatdagi ustunlikni oshirish, resurs bazasini kengaytirish hisobiga kreditlash hajmini oshirish, kredit portfeli tavakkalchiliklarini diversifikatsiyalash asosida tavakkalchilik darajasini kamaytirish, kredit qaytmasligi tavakkalchiligini kamaytirish.

Demak, hali oldinda qiladigan ishlar ko'p. Masalan, mamlakatimiz banklarida hamon qisqa muddatli manbalarni qisqa muddatli aktivga yo'naltirish ko'lami kattaligicha to'g'ri kelmoqda. Shunday ekan, tijorat banklarining uzoq muddatli aktivlarga qo'yilma qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Hozirgi kunda respublikamiz banklarining fond bozoridagi operatsiyalari ko'lami kichikligicha qolmoqda. Bu miqyosni tubdan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Tijorat banklari likvidlilikni samarali boshqarish, investitsion portfel tarkibini oqilona shakllantirish yo'lidagi ayrim to'siqlarni bartaraf etish davr talabidir.

Zero, har qanday islohot natijasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qilishi darkor. Davlatimiz rahbari takidlaganidek, "Odamlarimiz etarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko'paytirishimiz zarur. Bu g'oyat dolzarb ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi". Tijorat banklari esa aynan mana shunday muhim jarayonlarning eng faol va uzluksiz ishtirokchisiga aylanishi bugun har qachongidan ham dolzarbdir.

III-Bob. Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

3.1. Tijorat banklari resurslarini optimallashtirish yo'llari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tijorat banklari uchun asosiy muammolardan biri bankning likvidligi va daromadlilikining eng maqbul darajasini aniqlashdir. Unga erishish uchun bank aktivlarini samarali boshqarish katta ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari operatsiyalarini shartli ravishda 3 guruhga bulish mumkin:

- o'z kapitalini shakllantirish va mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq passiv operatsiyalar;
- foyda olish maqsadida o'z mablag'i va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish bilan bog'liq aktiv operatsiyalar;
- komission-vositachilik va ishonch operatsiyalar.

Aktiv operatsiyalar - bank tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali joylashtirishdir.

Banklar o'zlarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida belgilangan likvidlilik me'yorlariga amal qilishi va ayrim turdagi aktivlar buyicha risklarning maqsadga muvofiq taqsimlanishini taminlashi zarur buladi.

Bankning aktiv operatsiyalarini 4 guruhga bulish mumkin:

- Kredit operatsiyalari. Buning natijasida bankning kredit portfeli shakllanadi;
- Investitsiya operatsiyalari. Buning natijasida bankning investitsiya portfeli shakllanadi;
- Kassa va hisob-kitob operatsiyalari. Bu orqali bank o'z mijozlariga asosiy xizmat turlarini ko'rsatadi.
- Boshqa aktiv operatsiyalari. Mazkur operatsiyalar bank faoliyatini samarali amalga oshirishga tegishli infrato'zilma yaratish bilan bog'liq operatsiyalardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar uchun aktivlarni joylashtirish asosiy vazifalardan biri bulib qolmoqda. Har qanday bank moliyaviy bozorning yuqori

darajada rivojlanishi bilan iqtisodiy barqarorlik sharoitida ham malum jiddiy kiyinchiliklarni engib utishiga to'g'ri keladi. Lekin inflyatsiya darajasi yuqori va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu tashqi omillar tijorat banklari moliyaviy ahvoliga tasir qilib, bank aktivlarini boshqarish masalasini birinchi darajaga quymoqda.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish o'z oldiga balans likvidligiga rioya qilgan holda, bank foydaliligini taminlash singari ikki yagona maqsadni quyadi.

Moliyaviy jihatdan aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- bank likvidliligini oshirish;

- bank daromadini oshirish;

- risklarni kamaytirish.

Bundan kelib chiqqan holda, bankning aktivlari ularning daromadliligi, risk darajasi va likvidliligini etiborga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Bank faoliyatining rivojlanishidan malumki, bank aktivlari daromadliligi va likvidliligi bir-biriga qarama-qarshi ko'rsatkichlardir. Likvidlilik aktivlar va passivlar muvozanatlanganligi, bankning joylashtirilgan aktivlari va jalb qilingan resurslari muddatlari muvofiqligi darajasiga ko'ra belgilanadi. Aktivlarni qaytarish va majburiyat o'rtasidagi muddat nomuvofiqligini likvidlilik riski asosiy manbasidir. Likvidlilik - bankning tashqi baholash mezonidir. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tahlili bankning likvidliligi ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bank likvidliligi muomaladan chiqarilgan depozitlar hajmini, aktivlarni qaytarish va majburiyatlarni bajarish muddatidagi farqlarni, pul bozoridagi tebranishlarni, rejalashtirilmagan harajatlarni qoplashi kerak.

Bank likvidligini boshqarish konsepsiyasi asosida aktiv va passivlarni ularning muddati, miqdori va risklari buyicha boshqarish tamoyili yotadi. Bu bilan

bankning o'rtacha likvidliligi va foydaliligi taminlangan holda, uning kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish uchun to'liq imkon yaratiladi.

Bank balansi likvidliligiga uning aktivlari tarkibi tasir qiladi. Ya'ni jami aktivlar ichida birinchi darajali likvid aktivlarning xissasi kup bulishi bankning yuqori likvidliligidan dalolat beradi. Shu sababli, bank aktivlarini ularning likvidlilik darajasiga qarab 4 guruhga bulish mumkin:

1. Doimiy tayyorgarlikda turuvchi likvid aktivlar (kassadagi naqd pul, Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va hokazo);

2. Pul mablag'iga tez aylanuvchi bank ixtiyoridagi aktivlar (yaqin 30 kun ichida olinishi mumkin bulgan kreditlar va boshqa to'lovlar);

3. Nolikvid aktivlar - muddati utgan kreditlar va umidsiz qarzlar, bank bino va inshootlari.

4. O'zoq muddatli kreditlar va kuchmas mulkka quyilgan quyilmalarni qiyin likvidli aktivlar toifasiga kiritish mumkin.

Likvid aktivlar kuyidagi 3 ta o'ziga xos xususiyatlarga ega bulishi lozim:

- bank aktivlari tez pulga aylanishi uchun ular o'z bozorlariga ega bulishi kerak;

- etarli darajada barqaror narxga ega bulishi kerak, ya'ni bozor barcha sotilayotgan aktivlar narxlarini sezilarsiz darajada pasaytirgan holda qabul qilish kobiliyatiga ega bulishi kerak;

- aktivlar qaytadigan bulishi kerak, ya'ni sotuvchi dastlabki investitsiyalarni yuqotishlarsiz yoki minimal risk bilan qoplay olish imkoniyatiga ega bulishi kerak.

Bank likvidliligi aktiv operatsiyalarning risklilik darajasiga bog'liq buladi. Ya'ni bank balansida yuqori riskli aktivlar xissasi qancha kup bulsa, talab qilinadigan likvidlilik shuncha past buladi. Bank tomonidan boshqa muassasalardan va aholidan olingan depozit va qarzlarning ishochliligi ham uning likvidliligiga tasir qiladi.

Bank aktivlarining barchasi xatarga moyildir. Shuning uchun ushbu xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni me'yorida saqlashni taminlash talab

qilinadi. Bank aktivlarining tarkibini urganish natijasiga karab, turli xil risklarni etiborga olish lozim.

Bankning likvidli mablag'larga bulgan extiyojini bozordagi talab va taklif nuktai nazaridan kurib chiqish mumkin. Bankda likvidli mablag'larga bulgan talab ikkita sabab buyicha vujudga keladi:

Mijozlarning o'z hisobvaraqlaridan mablag'larini olishlari natijasida;

Mijozlar tomonidan kredit olish uchun buyurtmanomalar kelib tushishi sababli vujudga keladi.

Likvid mablag'larga bulgan talabning vujudga kelishiga yana bir sabab, bankning boshqa kreditorlardan (boshqa banklar yoki xukumat va Markaziy bank) olgan qarzlarini qaytarish bilan bog'liqdir. Soliqlarni tulash va aksiyadorlarga dividend tulash ham yuqori likvidli aktivlarga bulgan talab usishiga olib keladi. Bank likvid mablag'larga bulgan talabni qondirish uchun barcha salohiyatli taklif manbalarini jalb qiladi, ya'ni asosiy etiborni aholi va jismoniy shaxslarning mablag'larini depozitlarga jalb qilishga qaratadi.

Likvid mablag'larga bulgan umumiy talab uning umumiy taklifidan oshib ketsa, bank likvid mablag'lar taqchilligiga tayyor turishi va qancha miqdorda, qancha muddatga qushimcha likvid mablag'lar olish masalasini hal qilishi zarur, o'z navbatida jami taklif jami talabdan oshib ketsa bank rahbariyati likvid mablag'larining ortiqchaligiga tayyor bulishi va ushbu mablag'larga bulgan talabni qoplash uchun zarur bulgunga kadar qayerga, qancha muddatga mablag' yunaltirish masalasini hal qilishi kerak buladi.

Bankning likvid mablag'larga bulgan talabni rejalashtirishdagi birinchi vazifa naqd pul mablag'larini boshqarishdir. Ya'ni mijozlar talabini qondirish uchun etarli darajada naqd pul zaxiralarini taminlashdan iboratdir. Lekin naqd pullar bankka daromad keltirmaydi, o'z navbatida bank raxbariyati naqd pulni minimal darajada ushlab turish kerak buladi. Bu vazifani amalga oshirish bankning pul muomalasi bilan shug'ullanuvchi bulinmasi zimmasiga tushadi. Ya'ni ushbu bulinma naqd pulning zaruriy minimal darajasini aniqlab, likvidlilikni boshqarish

buyicha amaliy ishlarni amalga oshirish uchun tavsiyalarni bank rahbariyatiga taqdim qilishi kerak.

Bank aktivlari muddatlari buyicha uning passivlari tarkibiga aniq to'g'ri kelishi kerak. Lekin bank bozor munosabatlarining nobarqarorligi xataridan tula xolos emas. Bu erda bank rahbariyati oldida bank operatsiyalari daromadlilikini likvidlilik chegaralari doirasidan chiqmagan holda taminlash muammosi paydo buladi. Lekin likvidlik chegarasi, aktivlar va passivlar muddatiga qat'iy rioya qilgan holda joylashtirilishi ham bank daromadini maksimal darajaga chiqarishga ayrim hollarda xalaqit beradi. Xozirgi kunda, bank amaliyotining ko'rsatishicha, talab qilib olinguncha depozitga quyilgan mablag'larning bir qismi tarixiy xarakter kasb etmokda. Yani, o'zoq muddat talab qilinmasdan saqlanmoqda. Bu ushbu resurslarni o'zoq muddatli, yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirishga imkon beradi.

Yuqorida takidlab o'tganimizdek, bank aktivlarini xatarlilik darajalariga karab turli guruhlarga, ya'ni risksiz aktivlardan tortib 100 foiz riskli guruhlarga bulish mumkin. Ushbu guruhlarga bulish natijasida bank aktivlarining malum bir qismini riskli aktivlar, ya'ni riskka asoslangan aktivlardan tashkil topadi. Riskka asoslangan aktivlar miqdoriga qarab bank aktivlari sifatiga baxo berish mumkin buladi.

Bank aktivlarining daromadlilikini etiborga oladigan bulsak, aktivlar o'zining mohiyatiga kura daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan turlarga bulinishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, har bir tijorat banki o'zining rivojlanish strategiyasidan va bank faoliyatining yirikligidan kelib chiqqan holda likvidlilikni boshqarish strategiyalarini etiborga olib, o'z faoliyatida qullashi bankning likvidlilikini taminlab turishga erishish mumkin. Shuni ham takidlab utish joizki, bank resurslarini likvidlilikining samaradorligini oshirish uchun albatta likvidlilikni boshqarishning aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasidan foydalangan holda o'zining aktiv va passivlarini shaklantirishsa, maqsadga muvofiq bulardi. Buning uchun, bankning aktivlarida daromad keltiruvchi va

yuqori likvidlikka ega bulgan qimmatli qog'ozlar salmog'ini oshirib borilishi va qarz majburiyatlarini o'ziga jalb qilgan holda passivlari shakllantirilsa, bank faoliyatida likvidlilik, daromadlilik va risklilik urtasidagi eng optimal nisbatni saqlab turish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy bank-kredit tizimining muhim bug'inlaridan biri bulgan tijorat banklari moliya bozorida faoliyat yurituvchi kup funksional muassasadir. Hozir xalqaro bank amliyotida mijozlarga 200 dan ortiq xizmat turlari taklif etilmokda. Vaqt o'tishi bilan bank operatsiyalarining shakli, raqobat, tizimni boshqarish va tartibga solish prinsiplari o'zgardi, bank faoliyatining amal qilish soxasi kengayib, bozor sharoitlari va talablariga moslashish qobiliyati o'sadi.

Tijorat banklari faoliyatining turli jixatlariga qiziqish jahon miqyosida doimo oshib bormoqda. Respublikamiz tijorat banklarining moliyaviy resurslarini shakllantirishi va ulardan nechog'li unumli foydalana olishi ham mutaxassislar diqqat markazida turibdi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlash uchun birinchi navbatda, ularning likvidlilik, daromadlilik va risk darajasini urganish lozim.

Moliya bozorida o'z urni va mavkeini mustahkamlash, o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini xech bir moneliksiz bajarish uchun banklar muayyan darajadagi likvidlilikni taminlashi zarur. Likvidlilikning belgilangan me'yorlari mavjud. Ularga tashqi, ya'ni joriy qonunchilik asosida Markaziy bank tomonidan urnatilgan va ichki, ya'ni tijorat banklarining faoliyat xususiyatlari, to'zilishi, aktiv va passivlari sifatini hisobga olib, belgilab quygan me'yor ko'rsatkichlarga ajraladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozitga urnatilgan majburiy rezervlar miqdorini 20 foiz darajasida belgilab quygan. Shu bilan birga, endilikda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarning muddatli depozitlariga jalb qilingan aktivlar majburiy rezerv talablaridan ozod etilgan. Tijorat banklariga likvidlilikni taminlab turish uchun zarur me'yoriy darajani mustaqil ravishda belgilash huquqi berilgan. Biroq yuqori likvidli aktivlar, davlat korporativ obligatsiyalarini mustasno etganda, daromad keltirmaydi. Shu sababdan, jalb etilgan pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun banklar likvidlik holatida

saqlanayotgan jamg'armalarini minimal darajaga keltirishi zarur. Bunda belgilangan majburiy zaxira va joriy likvidlik me'yorlarini hisobga olish kerak, albatta. Turkiya, Italiya, Ispaniyada Markaziy bank tijorat banklarining Markaziy bankda joylashtiriladigan majburiy zaxira hisobraqamlaridagi mablag'lari buyicha foizli daromadlar to'lab turadi.

Mamlakatimiz banklariga etibor beradigan bo'lsak, ayrim tijorat banklarimizda joriy likvidlik ko'rsatkichlari juda yuqori ekanligiga guvoh bulamiz. Bu vaziyat kelgusida mazkur banklarning daromadiga o'zining salbiy tasirini ko'rsatadi.

Sungi yillarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiy hayotida passivlarni boshqarish vositasida bank likvidliligini tartibga solish nazariyasi sinovdan o'tkazilmoqda. Bu degan so'z, bundan buyon banklar katta pul mablag'larini likvid shaklda saqlamasliklari mumkin. O'z mijozlari oldidagi majburiyatlarni ado etish lozim bulsa, banklar qisqa muddatga boshqariluvchi passivlarni jalb etadi. Shubxasiz, bank minimal darajadagi ichki likvid zaxirasiga ega bulmog'i lozim. Zaxira fondining hajmini aniqlash chogida jalb etilgan mablag'larning turg'unligi omilini hisobga olish shart.

Zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish uchun zarur resurslar hajmini oshirishning eng ommaviy uslubi banklararo kreditlardan foydalanishdir. Ammo, bu uslubning o'ziga yarasha xususiyatlari ham bor. Bir tomondan, u bankning majburiyatlarini bajarish uchun zarur qushimcha likvidli mablag'larni jalb etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, bu manbadan xaddan tashqari kup foydalanish o'ziga xos tobelikni keltirib chiqaradi. Bu holat tasiridan butun bank tizimining faoliyati izdan chiqishi extimoldan holi emas. Bundan tashqari, banklararo kreditlash passivlarni boshqarishning eng qimmatga tushadigan vositasi sanaladi.

Hozirgi kunda, banklar o'zlarining likvidlilik darajasini bir maromda saqlab turish uchun juda qisqa muddatlarga banklararo zayomlardan foydalanishi urinlidir. Takidlab utish joizki, banklararo moliya bozoridan resurslarni jalb etish uslubi passivlarni boshqarishning yagona vositasi emas. Bank daromadlariga zarar etkazmasdan likvidlilikni tartibga solishning yana boshqa xillari ham mavjud.

Masalan, qayta sotib olish majburiyati bilan chiqarilgan qimmatli-qog'ozlarni sotish haqida bitim to'zish, depozit sertifikatlarini sotish, tijorat qog'ozlari va obligatsiyalarni chiqarish. Shu kabi boshqa usullardan ham foydalansa buladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, depozit sertifikatleri yordamida mablag'larni jalb etish resurslarning hajmini oshirish bilan birga, banklarning likvidliligini ham kutaradi. Investorning takidlashicha, depozit sertifikatleri oddiy muddatli jamg'armalardan kura afzalrokdir. chunki mazkur sertifikatni harid qiluvchi kishi bush pul mablag'larini bankda malum muddat saqlash uchun joylashtirib, foizli daromad olib turadi. Zaruriyat tug'ilsa, muomaladagi sertifikat egasi o'z depozitini muddatidan ilgari sotib, naqd pulga aylantirishi mumkin. Respublikamizda qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori yaxshi rivojlanmaganligi tufayli banklar moliyaviy vositalarning barcha xillaridan birdek unumli foydalanmayapti. Bozor munosabatlarning yanada rivojlanishi banklarni passivlar bilan ishlashga undamaydi. Shunda biz yuqorida etirof etgan passivlar bilan ishlash uslublari majmui banklar resurs bazasini mustaxkamlash, likvidlikning zaruriy darajasiga erishish, yuqori daromad olishga imkoniyat yaratadi.

Har bir tijorat banki faoliyatida resurslar muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bank o'zining oldiga quygan rivojlanish strategiyasini amalga oshirishi uchun albatta resurs bazasini barqarorlashtirib borishni talab etadi. Shu boisdan ham, tijorat banklari o'zlarining resurs bazasini optimal darajada ushlab turishga intilib keladilar.

Bank resurslarining optimallashtirish deganda, nafaqat ularning miqdori, balki resurslarni sotib olish bahosi, keltiradigan daromadi, ya'ni samaradorligi, doimiy mavjudligi va boshqa ko'plab omillarni tushunishimiz kerak.

Tijorat banklari resurslarining doimiy ravishda nazorat qilib borilishi ularning sifatiga ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi. Har bir tijorat banki, avvalambor o'z va jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbatni doimiy ravishda etiborga olishi kerak. Bunda o'z va jalb qilingan mablag'lar urtasidagi nisbat 1:20 dan oshib ketmasligi bank resurslari o'rtasidagi normal chegarani belgilab turadi.

Shuni takidlab utish joizki, bu ko'rsatkichni boshqacha qilib ham aytishimiz mumkin, ya'ni riskka asoslangan bankning resurslari bilan birinchi darajali kapital urtasidagi nisbat 5 foizdan kam bulmasligi kerak. Aniqroq qilib aytadigan bulsak, birinchi darajali kapital riskli aktivlarning 5 foizidan kam bulmasligi lozim.

Tijorat banklarining xususiyatli tomonlaridan biri shuki, banklar o'z mablag'lari hisobiga emas, balki qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobiga o'z faoliyatlarini tashkil qiladilar. Shunday ekan, tijorat banklarining resurslarini optimal darajada ushlab turish uchun banklarning jalb qilingan mablag'lari ustidan doimiy nazorat qilib borish lozim. Bunda, quyidagilarni inobatga olgan holda tahlil qilib borish kerak:

Depozitlar barqarorligini taminlovchi strategiyani aniqlash. Bunday strategiyaning bir qismi bulib, mijozlarga depozitlar sifatini oshiruvchi marketing hisoblanadi. Ya'ni, mamlakat iqtisodtida inqiroz yuz bergan davrlarda ham mijozlar bankga bulgan yuksak ishonchi yuqolmasligi tadqiq qilinadi. Shuni aytib utish lozimki, jamg'arma depozitlar muddati oshishi depozitlar koldig'ining tebranishini kamaytiradi;

Tijorat banklari jalb qilingan resurslari tarkibida nafakat depozitlar barqarorligini, balki depozit manbasini ham ko'zatish kerak;

Kredit resurslari hisobini muvofiqlashtirish va ssuda raqamlari monitoringini olib borish;

Boshqa kredit muassasalaridan olinadigan depozitlarning barqarorligini baholash;

Bank o'z passivlarni qayta guruhlash orqali muddatli va jamg'arma depozitlarning salmog'ini talab qilib olinguncha bulgan depozitlarning salmog'iga tenglashtirish;

Umuman olganda, bank faoliyatidagi risklarni aniqlash va likvidlilikning muvozanatlashmaganligini aniqlash, o'zgarishlarga tasir qiluvchi omillar tahlilini har kunlik nazorat qilish uchun maxsus tizim to'zish kerak. Shuning uchun, operativ holatda analitik ishlarni bajarish uchun malumotlarni olinishi mumkin bulgan malumotlar bazasini to'zish kerak. Bunga asosan, bankning strategik

rivojlanish siyosati aniqlanadi. Malumotlar bazasini shakllantirishda manba sifatida kredit va depozit shartnomalar buyicha xulosalar, kreditga rejali bulgan extiyoj haqida malumotlar, hisobraqamlar buyicha malumotlar, kreditlarning aylanishi haqida malumotlar va boshqa shu kabi malumotlar ishlatilishi mumkin.

Malumotlar bazasiga asosan bank tomonidan har kunlik likvidlilik va to'lovga layoqatlilik haqida malumotlar olinishi mumkin va bank operatsiyalarini kelajakdagi istikbollarini tahlil qilish kerak. Bu esa bank mablag'larini joylashtirish, resurslarni jalb qilish, o'z mablag'larini oshirish, bankning boshqa muassasalarga ulush quyishni kupaytirish, yangi daromad topish yullarini ishlab chiqish va yangi operatsiyalarni rivojlantirish masalalarini bog'lab bitta echim topishga yordam beradi.

Tijorat banklarining resurslarini optimal darajada ushlab turishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun tijorat banklari o'zlarining likvidlilik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda, ushbu normativ ko'rsatkichlarni taminlab turishi uchun xizmat qiladigan mablag'lardan ham unumli foydalanishni talab etadi. Shuning uchun ham, tijorat banki uchun likvidlilikning umumiy asosi bulib, faoliyatining foydaliligini taminlash hisoblanadi. Shunday qilib, agar asosiy normativ koeffitsiyentning haqiqiy qiymati o'rnatilgan minimal normadan yuqori bulsa, foyda olish uchun ishlatilmagan imkoniyat nukta nazaridan bank faoliyati salbiy baholanadi. Shuni takidlab utish lozimki, balans likvidliligining tahlili daromadlilik bilan amalga oshishi kerak. Tijorat banklar tajribasi, banklar likvidliligining minimal normasida ishlashi maksimal daromad olishi mumkinligi nazariyasini yana bir bor isbotladi.

Tijorat banklarining resurslarini optimallashtirishda mablag'larning muddatlari katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, tijorat banklari o'zok muddatga resurslarni jalb qiladigan bulsa, ushbu mablag'larni yuqoriroq foiz stavkada joylashtira olish imkoniyati kengayadi. Bu esa, banklarning daromadining oshirishga sabab buladi.

Shuni ham etiborga olish lozimki, agar tijorat banklari qisqa muddatga resurs jalb qiladigan bulsa, bu resurslarga tulanadigan foiz stavka harajatlarini

kamaytirsada, ammo bu resurslarni jalb qilish bilan joylashtirish urtasidagi muddatning qisqaligi bank resurslarga tulayotgan harajatlarni oqlamasligi mumkin.

Bank resurslarini optimal darajada saqlab turish uchun ularning jalb qilayotgan foiz stavkasining katta tasiri bor. Malum bir muddatga jalb qilinayotgan dapoziqlarning foiz stakasini bank aniq bilishi ushbu depozitlarni o'ziga qulay foiz stavkada joylashtirish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

Mamlakitimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari o'zlarining resurslarini yanada kengaytirish uchun intilishlari lozim. Ya'ni tijorat banklari jahon bank amaliyotida qullanilib kelayotgan resurslarni jalb qilishning yangi manbalarini qullashlari lozim.

Bankning resurs jalb qilishining bu usuli nafaqat bank uchun, balki mijoz uchun ham juda kulay hisoblanadi. Chunki, katta pul kirim chiqimiga ega bulgan yirik korxonalarning hisobvarag'idagi pul mablag'iga foiz tulanadi. Ikkinchi tomondan esa, banklarning resurs bazasini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu usul orqali mijozlarning pul mablag'ini jalb qilish orqali tijorat banklarining daromad olish imkoniyati kengayadi, hamda tusatdan yuzaga keladigan likvidlilik muammosini oldini olish imkoniyati tug'iladi. Chunki, mijozga pul kerak bo'lgan paytda u o'zining bankini oldindan xabardor qilishi lozim va shartnoma muddatidan oldin o'z pul mablag'larini talab qilishi tulanayotgan foiz stavkaning kamayishiga hamda malum bir muddat davomida resurs qidirib topish imkoniyatini beradi.

Shuni takidlab utish joizki, resurslarni bu usul orqali jalb qilish bankning boshqa aktiv operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tijorat banklari qisqa muddatga resurs jalb qilishlari banklarning maxsus ssuda hisobraqamlari hisobidan qisqa muddatli kreditlash operatsiyalarini rivojlantiradi. Ya'ni, tijorat banklarining overdraft va kontokorrent hisobraqamlari orqali kreditlash uchun talab tug'iladi. Chunki, tijorat banklari qisqa muddatga pul mablag'larini joylashtirish uchun manba qidirishadi. Kreditning bu usulini amaliyotga qullash nafaqat bank tizimi uchun, balki umuman iqtisodiyot uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining resurslarini optimallashtirish uchun banklar resurs jalb qilishning jahon amaliyotida foydalanayotgan manbalarini o'z faoliyatiga kiritish hamda resurslardan yuqori samara olish uchun mijozlarga turli-tuman bank xizmatlarini taklif etish kerak. Shuningdek, banklar mijozlarning talablaridan kelib chiqib o'zining depozit siyosati va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishsa, albatta bank resurslarining optimallashtirishiga erishiladi. Chunki, bank mijozlar talabini doimiy qondirishga qodir bo'lsa, bu bankka bo'lgan ishonchning oshishiga hamda bankning oladigan daromadi va raqobatbardoshligining oshishiga sabab buladi.

3.2. Tijorat banki foydasini oshirish va xarajatlarini kamaytirish yo'llari

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarini yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi. Umuman olganda barcha tijorat banklari o'z ish faoliyatining yakunlarini foyda bilan tugatishga harakat qiladilar. Bank muassasalarining moliyaviy natijalarini yakunida asosiy ko'rsatkich foyda hisoblanadi.

Bank muassasalarining asosiy ish prinsipi kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olish hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi.

Bank tizimini erkinlashtirish munosabati bilan banklar davlat tasarrufidan chiqarilishi sababli xarajatlarni minimallashtirishga qaratilishini taqozo etmoqda. Bank faoliyati natijasini tahlil qilishda olingan barcha daromadlardan qilingan xarajatlar chegirib tashlash orqali oxirgi natija foyda yoki zarar aniqlanadi.

Bank faoliyati asosan 2 ta asosiy moliyaviy hisobotlar, ya'ni buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali yakunlanadi.

Bankning daromadlilik, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar, boshqalar bir xil sharoitda

ishlasada, joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Bank operatsiya xarajatlarini aniqlash oson emas. Chunki, ular bank mahsulining keng turlarini aks ettiradi.

Banklar o'z faoliyatida 2 ta vazifani bajaradi. Bular:

- vositachilik, ya'ni kredit berish va olish;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish, axborotlar tahlili, marketing va boshqalar.

Bank passivlarini va o'z mablag'larini daromad aktivlariga transformatsiyalash nuqtai nazaridan, bankning birinchi vazifasini ham ishlab chiqarish jarayoni sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Foizli daromadlar an'anaviy tarzda o'z ichiga barcha aktivlar bo'yicha olingan ustama foizlar va komission to'lovlarni olsa, foizli xarajatlar – barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foizlar summasi aks ettiriladi.

Foizlar to'lovi bo'yicha umumiy xarajatlar barcha mablag'lar manbalari, ya'ni omonat hisoblaridan tortib to veksellar hamda aksiyadorlik obligatsiyalariga sarflanadigan foizli sarf-xarajatlargacha o'z ichiga oladi.

Rezervga ajratmalar kelgusida ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallab qo'yiladi.

So'nggi paytlarda anchagina ahamiyati ortib borayotgan foizli daromadlarga turli bank xizmatlari uchun ajratiladigan komissiyalar (hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar, trust operatsiyalar va hokazolar) yoki bir vaqtning o'zida imzolanadigan bitimlardan keladigan daromadlar (filiallarni sotish va hokazolar) kirsalar, foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek, boshqa operatsiya xarajatlari kiradi.

Moliyaviy jihatdan barqaror banklardagi xarajatlar tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: ish haqi va mukofotlar – 20 foiz, bino va uskunalar uchun xarajatlar – 5 foiz, boshqa xarajatlar – 10 foiz. Odatda, bank daromadlarining

2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Bankning sof foizli foydasi uning vositachilik faoliyatini aks ettirsa, sof foizsiz foydasi uning ishlab chiqarish rolini namoyon etadi. Sof foizli foydadan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplovchi mablag'larni ajratgan holda, biz ssudalardagi yo'qotish xarajatlaridan tashqari hisoblangan sof foydaga ega bo'lamiz. Bundan kelib chiqib shuni takidlash joizki, bank xarajatlari hisoba tizimida 3 ta umumiy operatsiyalar xarajatlari ko'rinishi mavjud: bular– foizlar to'lovi bo'yicha xarajatlari, ssudalardan yo'qotishlarni qoplash uchun rezerv xarajatlari va foizsiz xarajatlari.

Yuqoridagi xarajatlari bilan bog'liq tarzda 3 xil risklar mavjud, ya'ni foizlar, kredit va operatsiyalarning samaradorlik risklaridir.

Foizlar bo'yicha risklarni nazorat qilish qobiliyati banklardagi yuqori ish samaradorligining eng muhim tomoni hisoblanadi. Agar passivlardagi depozitlar ulushi, tashqi omillar bilan belgilanadigan kreditlar sifati va foiz stavkalari aniq bo'lsa, biz foizsiz xarajatlari tarkibi hamda ularning bank faoliyatiga tasirini ham aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Bank ishi samaradorligi uzviy bog'liq bo'lgan xarajatlarni nazorat qilishning yoki kamaytirishning uch asosiy yo'nalishi mavjud:

1. asosiy kapitalga investitsiyalarni kamaytirish;
2. ortiqcha (qo'shimcha) chiqimlar va boshqa belgilanmagan xarajatlarni («boshqa xarajatlari»);
3. shuningdek, xodimlarga ketadigan xarajatlarni nazorat qilish.

Dastlabki ikki yo'nalish bino, uskunalar va hokazolar bo'yicha xarajatlarni kamaytirishni ko'zda tutadi. Uchinchi yo'nalish jiddiy holatlarda qo'llanilib, bo'limlarni yopish, xizmatchilarni qisqartirish choralari ko'riladi. Lekin bunda mehnatga haq darajasi saqlanib qoladi.

Yuqorida takidlaganimizdek, bank xarajatlariining asosiy ko'rinishlari bo'lgan:

- 1) foizli xarajatlari, ular foizlar sikli va passivlar tarkibi bilan bog'liq;

2) kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash, iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq, o'z zimmasiga olgan tavakkalchilik hamda portfel diversifikatsiyasi bo'yicha xarajatlar;

3) operatsiyalar faoliyati samaradorligi bilan bog'liq foizsiz xarajatlar salmog'ining kamligi banklarning foydasini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Banklar uchun konsolidatsiya qilingan resurslar bo'yicha xarajatlarni uzluksiz nazorat qilib borish juda muhimdir.

Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi tasir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadlilikiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Bunday o'zgarishlarni soni va hajmi kuchli raqobat sharoitida o'sib bormoqda.

Passivlarni boshqarish har doim tijorat banklari uchun murakkab ish hisoblanadi. Banklar o'rtasida mijozlar uchun doimiy raqobat kurashi bo'lishiga qaramay, ular har doim qonun-qoida chegarasidan chetga chiqmaydilar.

G'arbda banklarni boshqarish prinsipini hazil tariqasida «3-6-3» deyishadi: bu 3 foiz depozitlar bo'yicha to'lovlar, 6 foiz kreditlar ajratish uchun olinadigan va kunduzgi soat 3 da golf o'ynash demakdir. Lekin bank faoliyati oddiy ish emas.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqqoslash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

Jami portfel bo'yicha o'rtacha foizlar hajmi umumiy sarf summasini to'lanmagan passivlar o'rtacha summasining foizlar to'loviga taqsimlanib, bir so'm qarzdorlik xarajatlarining o'rtacha foiz ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Malum muddat ichidagi resurslar birligi uchun o'rtacha narxlar shu vaqt mobaynidagi xarajatlar summasining qarzdorlikni qoplash uchun sarflangan

xarajatlarga nisbati tarzida hisoblanishi mumkin. Ko'plab banklar malum muddat ichidagi o'rtacha xarajatlardan foiz siyosatida noto'g'ri foydalanishadi: ular foiz xarajatlarini foizsiz xarajatlarga qo'shib, uni investitsiyalash fondi summasiga taqsimlab aktivlardan keladigan foydani hisoblashadi. Shunday qilib, har qanday daromad chakana ustama narx sifatida belgilanadi. Bunda kelajakda xarajatlarning ko'payishi yoki kamayishini taxmin qilish asosiy qiyinchilik hisoblanadi. Masalan, bozordagi foizlar miqdorining oshishi ish faoliyatiga qanday tasir ko'rsatadi?

Yangi majburiyatlar bo'yicha haqiqiy xarajatlar kamayadi: «o'rtacha tarixiy» xarajatalarga asoslangan, aktivlar bo'yicha daromadlarning belgilangan darajasi xarajatlarni qoplash va foyda olish uchun etarli emas.

Foiz stavkalari kamayganda aks holat yuz beradi. «O'rtacha tarixiy» xarajatlar yangi qarzдорlik bo'yicha haqiqiy foiz xarajatlarini kamaytirib ko'rsatadi. Shu sababli, belgilangan stavkalar bo'yicha ssudalar raqobatbardosh bo'lishi uchun juda yuqori hisoblanishi mumkin. Bunday xarajatlardan foydalanish foiz stavkalari belgilangan tarixiy muddat davomida bir xil darajada saqlanib qolishi ko'zda tutiladi. Narxlar bo'yicha qarorlar xarajatlarning yakuniy, aniq hajmiga (aniq daromadlarga nisbatan) asoslangan bo'lishi lozim. Aytaylik, bank 1 yil muddatga 12 foizlik yangi ssuda ajratishi mumkin. Bankning o'rtacha xarajatlari 8 foizga teng. Agar bank yangi ssuda bo'yicha stavkani (ustama foiz) o'rtacha xarajatlar bilan taqqoslasa, unda spread 4 foizni tashkil qilishini aniqlaydi. Demak, ssudani berish mumkin. Endi taxmin qilaylik, bank depozit sertifikatini bilan bog'liq ssudani 1 yilga 13 foiz hajmida berishi kerak. Bu yangi foizdagi resurslar birligi uchun cheklangan foiz stavkasini aks ettiradi. Agar ssuda bo'yicha cheklangan foiz stavkasini sertifikat bo'yicha cheklangan stavka bilan taqqoslashsa, spread manfiy bo'lib, u 1 foizni tashkil etadi, demak ssudani berish foydali emas.

Tijorat banklarining ko'zlagan maqsadini yakuniy natijasi foyda hisoblanadi. Shuning uchun banklar moliyaviy natijalarini doimo kuzatib borishi, ularning darajasini, o'sish suratlarini kuzatib, ularni xolisona baholab borishi zarur.

Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishning yana bir yo‘li bu ularning investitsion faoliyatini yaxshilash hisoblanadi.

Banklar bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo‘lsa, boshqa tomondan esa ular qarzdordirlar. Ushbu holat banklar uchun likvidlilikni muhim masala qilib qo‘yadi, ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo‘yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi. O‘zbekiston banklarining real aktivlarga qilgan investitsiyalarining salmog‘i yuqoridir. Banklarning bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlari uzoq muddatli kreditlar bo‘lib, ular aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida barqarorsizlik davom etayotgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshlik darajasini oshirish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash jarayonlarini tezlashtirish lozim. Ushbu masalalarni ijobiy hal qilish uchun mamlakatimizda asosiy investitsiya instituti hisoblanadigan tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish zarur.

Banklarning investitsiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag‘larni joylashtirishi bilan bog‘liq faoliyatidir. Banklarning investitsiya faoliyatini boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investitsiyani jalb qilingan mablag‘lar evaziga amalga oshiradilar. Shuning uchun ham bank bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo‘lsa, boshqa tomondan esa u qarzdordir. Ushbu holat banklar uchun likvidlilikni muhim masala qilib qo‘yadi, ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo‘yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsiya faoliyatlarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib mijozlardan jalb etilgan muddatli va jamg‘arma depozitlari hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, kapital

tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi; ikkinchidan, tijorat banklari faoliyatining mohiyatiga ko'ra, aholi va korxonalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini depozit hisobraqamlariga jalb qilish va ularni kreditlar, investitsiyalar shaklida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi; uchinchidan, banklararo kreditlar nisbatan qimmat moliyaviy resurs hisoblanadi, shu sababli undan aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanish tijorat banklari foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi; to'rtinchidan, tijorat banklari transaksion depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan turib foydalanishga haqli emas¹⁷.

Rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida transaksion depozitlar tijorat banki uchun resurs manbai hisoblanmaydi va ularga foiz to'lanmaydi.

Rivojlangan davlatlar banklarining resurslar bazasida mijozlarning mablag'lari yuqori salmoqni egallaydi. Xususan, Finlyandiya, Italiyada jami bank passivlarining 30 % dan ortiq qismi mijozlar (jumladan, jismoniy shaxslar) mablag'lariga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Yaponiya va Isroilda 80% ni tashkil etadi¹⁸. Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliya bozorining rivojlanganligi sababli tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida olingan pul mablag'lari ular resurslarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori ulushni egallaydi. Mazkur resurslar asosan banklarning uzoq muddatli investitsion operatsiyalarini moliyalashtirishda ishlatiladi.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida investitsion faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hisoblanadi. Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar Fransiya tijorat banklarida 16,2%, Germaniyada – 15,5%, Italiyada – 23,8%, Buyuk Britaniyada – 7,8%, Ispaniyada – 23,8%, AQShda – 2,2 %, Belgiyada – 6,4 %, Yaponiyada – 10,2% ni tashkil qiladi¹⁹.

¹⁷ Деньги, кредит, банки. / Под ред. проф. О.И.Лаврушина. – М.: “КноРус”, 2009. –С. 155 .

¹⁸ Матонников М.Ю. Банковская система России и долгосрочные ресурсы. // “Деньги и кредит”. Москва, 2013. №5. –С. 12.

¹⁹ Деньги, кредит, банки. / Под ред. проф. О.И.Лаврушина. – М.: “КноРус”, 2009. –С. 155

Respublikamizda moliya bozori etarli darajada rivojlanmaganligi sababli tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirishda asosan uzoq muddatli kreditlari bilan ishtirok etadilar. Banklarning bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlari uzoq muddatli kreditlar hisoblanib, ular aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalarining tarkibida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarga baho berish uchun kreditlarning muddatini tahlil qilish lozim. Respublikamiz banklari kredit portfelining 76,8% ini uzoq muddatli kreditlar tashkil etmoqda. Bunday holat, birinchidan, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini tobora rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi; ikkinchidan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayoniga banklarning faol jalb etilganligini ko'rsatadi; uchinchidan, aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarning investitsiyalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari kreditlariga bo'lgan talabining oshib borayotganligidan dalolat beradi. Respublikamiz tijorat banklari investitsion kredit qo'yilmalari hajmiga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, depozit foizlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy me'yorlar, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi va inflyatsiya darajasi kabi omillar tasir qiladi.

Investitsion kreditlar hajmiga inflyatsiya darajasi ham tasir qiladi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda banklarning investitsiya faoliyati susayadi, chunki kreditlarning foiz stavkasi oshadi va banklarning spekulyativ operatsiyalar bilan shug'ullanishga qiziqishi ortadi. Inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, banklarning real foiz stavkasi shuncha pasayib ketadi, bu banklarni investitsiya qilishga rag'batlantirmaydi. Respublikamizda keyingi 5 yil mobaynida inflyatsiyaning darajasi 10–12 foiz atrofida bo'lib, bu bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining bir muncha pasayishiga olib kelgan.

Respublikamiz tijorat banklari kredit qo'yilmalarining yuqori o'sish surrogatiga bo'lishida uzoq muddatli kreditlarning foiz stavkalarining pasayishi, majburiy zaxira stavkalarining o'zgarganligi va tabaqalashtirilganligi muhim rol o'ynagan. Ammo hozirgi kunda tijorat banklarining investitsion kreditlar hajmiga tasir

etuvchi omillar qatoriga hududlarning iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasi, resurslar tannarxi hamda tijorat banklariga davlat tomonidan imtiyozlarning mavjudligini alohida takidlab o'tish lozim.

Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyati, birinchi navbatda, ularning resurs bazasi etariligi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasining birinchi qismi kapitaldan iborat bo'lsa, ikkinchi qismi esa depozitlardan iborat. So'nggi yillarda tijorat banklari kapital bazalarining ham, depozit bazalarining ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lganlar.

Shuni takidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarida depozit mablag'lari umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ularning bazasini uzoq muddatli depozitlar hisobiga yanada mustahkamlash lozim.

Chunki respublikamiz tijorat banklarida transaksion depozitlarning jami depozitlar hajmidagi ulushi 50 foizdan yuqoriligicha qolmoqda. Jahon Tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining fikricha, transaksion depozitlarning jami depozitlar hajmidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi lozim. Aks holda muddatli mablag'lar etishmaydi va bu tijorat banklarining kreditlash salohiyatini oshirishni chegaralaydi.

Tijorat banklari resurs bazasining ikkinchi muhim tarkibiy qismi ularning kapital bazasi hisoblanadi. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro andazaga ko'ra, tijorat banklari kapitali asosiy va qo'shimcha kapitaldan iborat bo'lib, bunda asosiy kapital barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topadi. Shu sababli, tijorat banklarining asosiy kapitali investitsion kreditlarni moliyalashtirishning muhim hamda barqaror manbasi hisoblanadi.

Banklar investitsiyalarni amalga oshirishda faqatgina daromadlilikni emas, balki bankning likvidlilik darajasiga ham ahamiyat berishlari lozim. Bunda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsion kreditlarni o'z kapitallari va uzoq muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirishlari lozim. Shundagina bankda likvidlilik muammosi vujudga kelmaydi.

Shuningdek, banklar investitsion loyihalarning ekspertizasi sifatini oshirib, real samarador loyihalarga kredit liniyalari ochishlari kerak. Vaholanki, o'zini oqlamagan investitsion loyihalar ham uchrab turadiki, bunga sabab ular ishga tushishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlariga talab bo'lmaydi, ular eksport qilinmaydi yoki juda kam miqdorda eksport qilinadi, korxonalar loyihada belgilangan quvvatda ishlamaydi va ular etarli darajada xom ashyo bilan taminlanmagan yoki faoliyati xorijiy xom ashyoga bog'liq bo'ladi. Natijada investitsiya loyahasini moliyalashtirish uchun olingan kreditlar va ularning foizlari vaqtida qaytarilmaydi. Agar ushbu kreditlar xorijiy valyutada olingan bo'lsa, kurs o'zgarishi oqibatida korxonalar uni qaytarishga ancha qiynaladilar. Shuning uchun ham banklar investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish sifatini oshirishlari, yirik va murakkab loyihalarni ekspertiza qilishda xalqaro ekspertlarni jalb qilishlari maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, xorijiy bank kredit liniyalari orqali moliyalashtiriladigan loyihalarning ekspertizasiga ushbu xorijiy banklarning o'zi ham ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir.

Taraqqiy etgan mamlakatlar banklarining investitsion faoliyatining asosiy qismi sinditsiyalashtirilgan kreditlar berish amaliyotining hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda ham tijorat banklari sinditsiyalashtirilgan kredit berish amaliyotini keng yo'lga qo'yishlari lozim, bu ularning investitsiya faoliyatini rivojlantiradi va uni boshqarishni takomillashtiradi. Chunki bunda yirik loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishda bir qator banklar birgalikda ishtirok etadilar, risklar bo'linadi va resurslar birlashtiriladi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga nisbatan o'rnatilgan iqtisodiy normativlar buzilmaydi.

Yirik investitsiya loyihalarini xorijiy davlatlar banklari bilan birgalikda sinditsiyalashtirilgan kreditlar berish orqali moliyalashtirishni amaliyotga joriy qilish lozim. Bu loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq risk darajasini pasaytiradi va ularni ekspertiza qilishda xorij tajribasini o'rganish imkonini beradi.

Respublikamizdagi banklar iqtisodiyot tarmoqlaridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga turli budjetdan tashqari fondlar va sug'urta kompaniyalari

mablag‘larini faol jalb qilishlari lozim. Chunki bularning mablag‘larining aksariyat qismi uzoq muddatli bo‘lib, ularni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga transformatsiya qilish banklarda likvidlilik muammosini keltirib chiqarmaydi. Shuningdek, yirik hajmda valyuta ko‘rinishidagi moliyaviy mablag‘lar jamlangan O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini tijorat banklariga samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun subordinar qarz ko‘rinishida berishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik subektlarining aksariyati kichik korxonalar bo‘lib, ular o‘z investitsiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun bank kreditlaridan foydalanishlariga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri taminot masalasi hisoblanadi. Buni ijobiy hal qilish uchun, birinchidan, tijorat banklari korxonalar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish maqsadida lizing amaliyotlari hajmini oshirishlari lozim. Ikkinchidan, respublikamizda kreditlarni kafolatlash fondini jahon tajribasi va milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda tez tashkil qilish kerak.

Aholining banklardagi omonatlarini inflyatsiya natijasida qadrsizlanishidan himoya qilish maqsadida xorij tajribasidan foydalanish lozim. Masalan, Chili banklariga depozitlar bo‘yicha qat’iy belgilangan stavka emas, balki real inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lgan “suzib yuruvchi” foiz belgilash yuklatilgan. Shuningdek, aholi uchun depozitlar jozibadorligini oshirish uchun ularning muddatini oshirish bilan stavkalarini ko‘tarish banklarning barqaror resurs bazasini mustahkamlaydi. Natijada banklarning investitsiya qilish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida taklif etilayotgan tadbirlarning amaliyotga tatbiq qilinishi tijorat banklari investitsiya faoliyatini rivojlantirib, iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishiga ijobiy tasir qiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PP-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da davlat ulushi bo'lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank faoliyatining zamonaviy standartlari, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, bankdagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shu bilan birga, davlat ulushi bor bo'lgan tijorat banklari va korxonalarni bira vaqtning o'zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini qisqartirish belgilangan.²⁰

Xulosa qilib aytadigan bilsak, har bir tijorat banki o'zining rivojlanish strategiyasidan va bank faoliyatining yirikligidan kelib chiqqan holda likvidlilikni boshqarish strategiyalarini etiborga olib, o'z faoliyatida qullashi bankning likvidlilikini taminlab turishga erishish mumkin. Shuni ham takidlab utish joizki, bank resurslarini likvidlilikning samaradorligini oshirish uchun albatta likvidlilikni boshqarishning aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasidan foydalangan holda o'zining aktiv va passivlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bulardi. Buning uchun, bankning aktivlarida daromad keltiruvchi va yuqori likvidlikka ega bulgan qimmatli qog'ozlar salmog'ini oshirib borilishi va qarz majburiyatlarini o'ziga jalb qilgan holda passivlari shakllantirilsa, bank faoliyatida likvidlilik, daromadlilik va risklilik urtasidagi eng optimal nisbatni saqlab turish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy bank-kredit tizimining muhim bug'inlaridan biri bulgan tijorat banklari moliya bozorida faoliyat yurituvchi kup funksional moliya kredit institutidir. Hozir xalqaro bank amliyyotida mijozlarga 200 dan ortiq xizmat turlari taklif etilmokda. Vaqt o'tishi bilan bank operatsiyalarining shakli, raqobat, tizimni boshqarish va tartibga solish prinsiplari o'zgardi va o'zgarib bormoqda, bank

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kungi PP-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"

faoliyatining amal qilish soxasi kengayib, bozor sharoitlari va talablariga moslashish qobiliyati o'sadi.

Tijorat banklari faoliyatining turli jixatlariga qiziqish jahon miqyosida doimo oshib bormoqda. Respublikamiz tijorat banklarining moliyaviy resurslarini shakllantirilishi va ulardan nechog'li unumli foydalana olishi ham mutaxassislar diqqat markazida turibdi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarini yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi. Umuman olganda barcha tijorat banklari o'z ish faoliyatining yakunlarini foyda bilan tugatishga harakat qiladilar. Bank muassasalarining moliyaviy natijalarini yakunida asosiy ko'rsatkich foyda hisoblanadi.

Bank muassasalarining asosiy ish prinsipi kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olish hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi.

Avvalambor aytib utganimizdek, bank tizimini erkinlashtirish munosabati bilan banklar davlat tasarrufidan chiqarilishi sababli xarajatlarni minimallashtirishga qaratilishini taqozo etmoqda. Bank faoliyati natijasini tahlil qilishda olingan barcha daromadlardan qilingan xarajatlar chegirib tashlash orqali oxirgi natija foyda yoki zarar aniqlanadi.

Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishning yana bir yo'li bu ularning investitsion faoliyatini yaxshilash hioblanadi.

Banklar investitsiyalarni amalga oshirishda faqatgina daromadlilikni emas, balki bankning likvidlilik darajasiga ham ahamiyat berishlari lozim. Bunda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli investitsion kreditlarni o'z kapitallari va uzoq muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirishlari lozim. Shundagina bankda likvidlilik muammosi vujudga kelmaydi.

Respublikamizdagi banklar iqtisodiyot tarmoqlaridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga turli budjetdan tashqari fondlar va sug'urta kompaniyalari mablag'larini faol jalb qilishlari lozim. Chunki bularning mablag'larining aksariyat qismi uzoq muddatli bo'lib, ularni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga

transformatsiya qilish banklarda likvidlilik muammosini keltirib chiqarmaydi. Shuningdek, yirik hajmda valyuta ko'rinishidagi moliyaviy mablag'lar jamlangan O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini tijorat banklariga samarali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun subordinar qarz ko'rinishida berishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subektlarining aksariyati kichik korxonalar bo'lib, ular o'z investitsiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun bank kreditlaridan foydalanishlariga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri taminot masalasi hisoblanadi. Buni ijobiy hal qilish uchun, birinchidan, tijorat banklari korxonalar investitsiya faoliyatini moliyalashtirish maqsadida lizing amaliyotlari hajmini oshirishlari lozim. Ikkinchidan, respublikamizda kreditlarni kafolatlash fondini jahon tajribasi va milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda tez tashkil qilish kerak.

Aholining banklardagi omonatlarini inflyatsiya natijasida qadrsizlanishidan himoya qilish maqsadida xorij tajribasidan foydalanish lozim. Masalan, Chili banklariga depozitlar bo'yicha qat'iy belgilangan stavka emas, balki real inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan "suzib yuruvchi" foiz belgilash yuklatilgan. Shuningdek, aholi uchun depozitlar jozibadorligini oshirish uchun ularning muddatini oshirish bilan stavkalarini ko'tarish banklarning barqaror resurs bazasini mustahkamlaydi. Natijada banklarning investitsiya qilish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida taklif etilayotgan tadbirlarning amaliyotga tatbiq qilinishi tijorat banklari investitsiya faoliyatini rivojlantirib, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga ijobiy tasir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 19 apreldagi O'RQ-831-sonli Qonuni tahririda Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 20.04.2023 y., 03/23/831/0219-son)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi 21.12.2022
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2018 yil 28 dekabr. "Xalq so'zi", 2018 yil 29 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi № 19 (7521). 2020 yil 25 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kungi PP-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"
8. «Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish masalalari tadqiqiga yangicha yondoshuv xususida» "Science and Education" Scientific Journal August 2021 / Volume 2 Issue 8 www.openscience.uz 680.
9. Деньги, кредит, банки. / Под ред. проф. О.И.Лаврушина. – М.: "КноРус", 2017. –С. 155.
10. Банковское дело. / Под ред. проф. О.И.Лаврушина. – М.: КноРус", 2008. –С. 94.
11. Abdullaeva Sh.Z., U.O'. Azizov. «Bank ishi», T.: "Moliya" 2019 y.-1024 b.
12. A.A.Omonov, T.M.Qoraliev «Pul va banklar» T.: "Moliya" 2018 y.-464 b.
13. Банки и банковские операции : учебник и практикум для вузов / В. В. Иванов [и др.] ; под редакцией Б. И. Соколова. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 189 с.

14. Банковский менеджмент : учебник / Я.Ю. Радюкова, О.Н. Чернышова, А.Ю. Федорова [и др.]. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 379 с.
15. Банковское дело : учебник / под ред. д-ра экон. наук, проф. Г. Г. Коробовой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Магистр : ИНФРА-М, 2019. – 592 с.
16. Банковское дело в 2 ч. Часть 1 : учебник для вузов / Н. Н. Мартыненко, О. М. Маркова, О. С. Рудакова, Н. В. Сергеева ; под редакцией Н. Н. Мартыненко. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 217 с.
17. Банковское дело в 2 ч. Часть 2 : учебник для вузов / Н. Н. Мартыненко, О. М. Маркова, О. С. Рудакова, Н. В. Сергеева. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 368 с.
18. Банковское право : учебник и практикум для вузов / Д. Г. Алексеева [и др.] ; под редакцией Д. Г. Алексеевой, С. В. Пыхтина. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 410 с.
19. Библикова, Е.А. Кредитный портфель коммерческого банка : учеб. пособие / Е.А. Библикова, С.Е. Дубова.–3-е изд., стер. – Москва : ФЛИНТА, 2019. – 128 с.
20. Вайн, С. Оптимизация ресурсов современного банка / Саймон Вайн. – 2-е изд., доп. и перераб. – Москва : Альпина Паблишер, 2020. – 196 с.
21. Гамза, В. А. Основы банковского дела: безопасность банковской деятельности : учебник для среднего профессионального образования / В. А. Гамза, И. Б. Ткачук, И. М. Жилкин. – 5-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 455 с.
22. Герасимова, Е. Б. Анализ финансовой устойчивости банка: учебник / Е.Б. Герасимова. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 366 с.
23. Джагитян, Э. П. Макропруденциальное регулирование банковской системы как фактор финансовой стабильности : монография / Э. П. Джагитян. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 215 с.

24. Дворецкая, А. Е. Деньги, кредит, банки. Учебник / А.Е. Дворецкая. - Москва: РГГУ, 2016.
25. Звонова, Е. А. Деньги, кредит, банки : учебник и практикум для среднего профессионального образования / Е. А. Звонова, В. Д. Топчий ; под общей редакцией Е. А. Звоновой. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 456 с.
26. Николаева, Т. П. Деньги, кредит, банки : учебное пособие / Т. П. Николаева. – 2-е изд., стер. – Москва : ФЛИНТА, 2020. – 377 с.
27. О.И. Лаврушин «Деньги, кредит и банки» Москва «Кнорус» 2017год.
28. Тавасиев, А. М. Банковское дело : учебник для бакалавров / А. М. Тавасиев. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 647 с. — (Серия : Бакалавр. Академический курс). — ISBN 978-5-9916-2489-3.
29. Тавасиев, А. М. Банковское дело : учебник для вузов / А. М. Тавасиев. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 534 с.
30. Печникова, А.В. Банковские операции: Учебник / М.: Форум, 2017
31. Масленченков Ю. С., Тавасиев А. М. Банк - партнер предприятия; Юнити-Дана - М., 2015. - 352 с.
32. Хасянова, С. Ю. Банковские риски: международные подходы к оценке и управлению : учебник / С.Ю. Хасянова. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 149 с.
33. Хасянова, С. Ю. Кредитный анализ в коммерческом банке : учебное пособие / С.Ю. Хасянова. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 196 с
34. Isakov J.Ya., Toymuxamedov L.R., Tojiev R.R., Baymuratova Z.A., Isakov I.J., “Pul hám bankler” páni boyınsha oqıwlıq. –Nókis -2022,370 b

Internet saytlari:

1. www.lex.uz – Uzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari va malumotlari milliy bazasi.
2. www.norma.uz –Axborot – huquqiy portal
3. www.tfi.uz –Toshkent moliya instituti rasmiy sayti
4. www.cbu.uz – Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
5. www.uzreport.com, Novosti Uzbekistana.
6. www.worldbank.org Jahon Banki ma`lumotlari.
7. www.ebrd.org Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ma`lumotlari
8. www.stat.uz – Uzbekiston Respublikasi Davlat statistikasi agentligining rasmiy sayti